

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI**  
**IQTISODIYOT FAKULTETI**  
**«IQTISODIYOT» KAFEDRASI**

«HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI»

«Iqtisodiyot» kafedra mudiri  
\_\_\_\_\_ dots. A.Raxmatullayev

«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2014 yil

«TASDIQLAYMAN»

«Iqtisodiyot» fakulteti dekani  
\_\_\_\_\_ i.f.d. A.F.Xurramov

«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2014 yil

**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va sotish  
tarmoqlarini rivojlantirish masalalari (Koson tumani “Koson-yog‘  
ekstraksiya” OAJ misolida) mavzusidagi**

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

BAJARDI: “Iqtisodiyot» ta‘lim  
yo‘nalishi bitiruvchisi IV kurs I-464 guruh  
talabasi \_\_\_\_\_ Ochilov Komil  
Quyliyevich

ILMIY RAHBAR:  
“Iqtisodiyot» kafedra katta o‘qituvchisi  
i.f.n. \_\_\_\_\_ Z.S.Shoxo‘jayeva

**Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o‘tdi**

\_\_\_\_\_ sonli bayonnoma «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2014 y.

QARSHI – 2014 yil

# MUNDARIJA

**Kirish**.....

**I-Bob. Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va iste‘molchilarga yetkazib beruvchi sohaning ahamiyati va iqtisodiyotdagi o‘rni**.....

**1.1.** Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va iste‘molchilarga yetkazib beruvchi sohaning tarkibi.....

**1.2.** Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va sotish tarmoqlarining ahamiyati va iqtisodiyotdagi o‘rni.....

**II-Bob. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va sotish tarmoqlarini rivojlanishi va samaradorlik darajasi dinamikasi**.....

**2.1.** “Koson-yog‘ ekstraksiya” OAJning hudud iqtisodiyotida tutgan o‘rni va mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi.....

**2.2.** Korxonada mahsulotlarni qayta ishlashning samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....

**2.3.** Korxonada mahsulotlarni sotishning hozirgi holati tahlili.....

**III-Bob. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va sotish kanallarini rivojlantirish va takomillashtirish**

**yo‘llari**.....

**3.1.** Mahsulotlarni qayta ishlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari.....

**3.2.** Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va sotish kanallarini takomillashtirish yo‘llari.....

**3.3.** Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida korxonada samaradorligini oshirishda xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari.....

**Xulosa va takliflar**.....

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....**

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan agrar islohotlarda Qashqadaryo viloyatida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish samaradorligini har tomonlama oshirib borish iqtisodiy-tarkibiy siyosatining muhim strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishlarning tarkibiy qismi sifatida viloyat aholisining asosiy daromad manbalaridan biri bo‘lishi bilan bir qatorda, mamlakat aholisi va qayta ishlash korxonalarining qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini hamda talablarini qondirish, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy o‘shishning muhim omili sifatida katta ahamiyatga egadir.

Mamlakat Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek: “2013-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2000-yilga nisbatan 2,3 barobar ko‘paydi. Faqat o‘tgan yilning o‘zida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 6,8 foizga, jumladan, dehqonchilik – 6,4 foizga, chorvachilik – 7,4 foizga o‘ydi.”<sup>1</sup>.

Yurtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo‘jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o‘ylangan siyosat olib borilayotgani eng muhim xomashyo va eksportbop mahsulot bo‘lmish paxta yetishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni bir necha barobar ko‘paytirish imkonini berdi. Eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘liq ta‘minlashga zamin tug‘dirdi, kerak bo‘lsa, ularni chet mamlakatlarga eksport qilishga imkon bermoqda. Xususan, g‘alla yetishtirish 2000-yilga nisbatan 2 barobar, kartoshka – 3,1-marta, sabzavot – 3,2 barobar, uzum – 2-marta, go‘sht va sut – 2,1 karra, tuxum – 3,4 barobar oshdi.

Respublika iqtisodiyotini rivojlantirish aholining turmush darajasini yuksaltirish nihoyatda muhim masaladir. Uni hal etish turli xildagi iste‘mol tovarlarini, jumladan paxta xom ashyosini, paxta tolasini, uning yog‘ini, sovunni va boshqalarni talab darajasida ishlab chiqarishni taqozo qiladi. 2005-2012 yillar davomida paxta tolasiga bo‘lgan jahon talabi 24,7 mln. tonna bo‘lgani holda 25,9 mln. tonna ishlab chiqarilgan. Yuqorida ta’kidlangan mahsulotlar qishloq xo‘jaligi hamda qayta ishlash sanoati korxonalarida ishlab chiqariladi. Demak yuqoridagi tarmoqlar o‘zaro manfaatli holda uyg‘unlashar ekan. Bu jarayon Respublika iqtisodiyotida qayta ishlash tarmoqlarining ma‘lum darajada shakllanganligidan dalolat beradi. Shuning natijasida iqtisodiyotda mehnat taqsimoti amalga oshirilmoqda. Lekin shakllangan qayta ishlash tarmoqlarining erkin bozor iqtisodiyoti talablariga to‘liq javob beradigan darajada emas. Chunki, ular o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar yetarli darajada takomillashmagan. Masalan, paxtachilik xo‘jaliklari uchun zarur bo‘lgan sanoat korxonalarini mahsulotlarining (traktor, mineral o‘g‘it, yoqilg‘i va boshqalar) bahosi ancha yuqori, fermer xo‘jaliklari sotayotgan paxta xom ashyosining bahosi esa aksincha. Natijada shu mahsulotlar o‘rtasidagi nomutanosiblik (disparitet) mavjud. Shuningdek, qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan paxta xom ashyosini qayta ishlash hisobiga olingan sof foyda ularning qo‘shgan hissalariga mutanosib ravishda taqsimlanmayotir. Bunday hol tarmoq korxonalarining rentabellik darajasiga turlicha ta‘sir etmoqda. Natijada paxtachilik xo‘jaliklarida faoliyat ko‘rsatayotgan ishchi–xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish darajasi ham keskin farq qilmoqda. Ta’kidlangan masalalar qayta ishlash va sotish tizimlarini ilmiy va amaliy jihatdan to‘g‘ri va samarali shakllanmaganligidan, undagi iqtisodiy munosabatlarning bozor iqtisodiyoti talablari asosida to‘liq faoliyat ko‘rsatmayotganligidan dalolat berib mavzuni nazariy, uslubiy hamda amaliy jihatdan dolzarbligini namoyon etib, uni tizim shaklida chuqur tadqiq etishni taqozo etmoqda.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. 18.01.2014 y

**BMIning maqsad va vazifalari.** Ushbu bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va sotish tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy, metodik va tashkiliy choralarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Shu maqsadga muvofiq ushbu ishda quyidagi asosiy vazifalar qo'yildi:

- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va iste'molchilarga yetkazib beruvchi sohaning tarkibini nazariy tahlil qilish;
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va sotish tarmoqlarining ahamiyati va iqtisodiyotdagi o'rmini o'rganish;
- Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida Koson-yog' ekstraksiya" OAJning hudud iqtisodiyotida tutgan o'rni va mahsulot ishlab chiqarish dinamikasini tahlil qilish;
- Korxonada mahsulotlarni qayta ishlashning samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish;
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va sotish kanallarini takomillashtirish yo'llarini ko'rsatish;
- mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar samaradorligini oshirishda xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalariga ijobiy yondoshish.

**BMI obyekti va predmeti.** Bitiruv malakaviy ishining obyekti sifatida Koson tumanidagi "Koson-yog' ekstraksiya" OAJ tanlab olingan.

BMIning predmeti tarmoq va korxonalarida samaradorlikni, ya'ni, mahsulot tannarxi, bahosi, foyda va rentabellikni ilmiy uslubiy jihatdan asoslangan holda hisoblash, uni iqtisodiy-matematik usullardan foydalanib tahlil etish negizida tannarxini arzonlashtirish, foydani, rentabellikni va bir butun samaradorlikni oshirishning iqtisodiy jihatdan isbotlangan variantlarini ishlab chiqishdagi iqtisodiy munosabatlar tizimidir.

**BMIning ilmiy yangiligi.** Ushbu bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

- Viloyat miqyosida erkin bozor munosabatlari talabiga mos holda ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan paxtachilik agrosanoat majmuasi, uning tarkibi ishlab chiqildi;
- Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot tannarxi, bahosi va rentabellikning mazmun, mohiyatini e'tiborga olgan holda ularni hisoblash usullari takomillashtirildi;
- Bozor iqtisodiyoti sharoitida agrosanoat majmuasi tarmoqlarining iqtisodiy samaradorligini qayta baholash zarurligi va usullari nazariy va amaliy jihatdan asoslandi;
- Bozor iqtisodiyoti sharoitida agrosanoat majmuasiga kiruvchi xalq xo'jaligi tarmoqlari, korxonalar va barcha bo'linmalar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimini takomillashtirishga doir ilmiy, uslubiy va amaliy takliflar hamda tavsiyalar ishlab chiqildi;
- Paxta xom-ashyosi va undan qayta ishlangan mahsulotlarning ishlab chiqarish va to'lik tannarxiga kiritilgan xarajatlarni asosiy va qo'shimcha mahsulotlarga taqsimlash tartibi tahlil qilindi va unga o'zgartirishlar kiritildi;
- Tovar ishlab chiqarish va sotishning haqiqiy baholari, tarkibi hamda darajasi aniqlanib, ularni takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar asoslab berildi;
- Istiqbolda paxta xom ashyosini qayta ishlash korxonalarining to'liq quvvat bilan ishlashini ta'minlaydigan ishlab chiqarish hajmi ilmiy va amaliy jihatdan bashorat qilindi.

**BMIning nazariy va amaliy ahamiyati.** BMIning nazariy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda bildirilgan ilmiy-nazariy fikrlar va ishlab chiqilgan asosiy xulosalar o'rganilgan muammoning nazariyasini va qayta ishlash tarmoqlari samaradorligini oshirish hamda sotish kanallarini takomillashtirishga qaratilgan dasturlarini qo'llash amaliyotini ma'lum darajada boyitadi.

**BMI tarkibi va tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ish kirish, uchta bob, sakkizta paragraf, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan iborat.

## **I-Bob. Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va iste‘molchilarga yetkazib beruvchi sohaning ahamiyati va iqtisodiyotdagi o‘rni**

### **1.1. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va iste‘molchilarga yetkazib beruvchi sohaning tarkibi**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo‘jaligining samaradorligi ko‘p jihatdan boshqa iqtisodiyot tarmoqlarining ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq ekan. Chunki, bir tarmoqning pirovard mahsuloti boshqa bir tarmoq uchun ishlab chiqarish vositasi yoki xom ashyosi bo‘lib xizmat qiladi va uning tarmoq uchun birlamchi qayta ishlash yoki mahsulotni iste‘molchiga yetkazib berish xizmatini yuzaga keltiradi.

Sanoat bilan qishloq xo‘jaligi tarmoqlari o‘rtasidagi bunday aloqadorlik negizida, organik jihatdan aloqador bo‘lgan va yagona pirovard maqsadga qaratilgan agrosanoat majmuasi vujudga kelishini taqozo etadi. Demak, agrosanoat majmuasi vujudga kelishining asosiy sababi bir tomondan, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tarmoqlar ishlab chiqarish munosabatlarining takomillashuvi bo‘lsa, boshqa tomondan, ijtimoiy mehnat taqsimotining mavjudligidir.

Shular negizida shakllangan agrosanoat majmuasining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy maqsadi: mamlakatning oziq-ovqat muammosini hal qilish va unga bo‘lgan iste‘molni ilmiy asoslangan meyorlarga yaqin-lashtirish; aholini qishloq xo‘jaligi xom ashyosidan tayyorlanadigan oziq-ovqat bo‘lmagan tovarlarga bo‘lgan talabini qondirish; agrosanoat majmuasi korxonalarini rivojlantirishning intensiv shakliga o‘tkazish va shu asosda pirovard mahsulot ishlab chiqarishni o‘stirishni ta‘minlash; barcha tarmoq va korxonalarda mavjud resurslar salohiyatidan foydalanishni yaxshilash va shu asosda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish; tashqi savdo oboroti tuzilmasini, oziq-ovqat mahsulotlarini ko‘proq chetga chiqarish hisobiga o‘zgartirishdan iborat. Maqsad majmuaning samarali tarkibining shakllanishini talab etadi. Demak, agrosanoat majmuasi- bu qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish, uni yig‘ishtirib olib saqlash, qayta ishlash va iste‘molchiga sifatli holda yetkazib berish bilan shug‘ullanuvchi iqtisodiyot tarmoqlarining o‘zaro manfaatli majmuasidir.

Qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni tayyorlaydigan (sotib oladigan), dastlabki yoki to‘liq qayta ishlaydigan va tayyor mahsulotlarni iste‘molchilarga yetkazib beradigan (sotadigan) barcha tarmoq va korxonalar agrosanoat majmuasining 3-sohasini tashkil etadi. Bularga: paxta tozalash zavodlari, konserva zavodlari, pillani qayta ishlash fabrikalari, sut va go‘shni qayta ishlash korxonalari, yog‘-moy ishlab chiqarish korxonalari, meva sharbatlari, vino, kon‘yak kabi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi zavodlar, muzxona (xolodilnik) va tayyor mahsulotni iste‘molchilarga yetkazib beruvchi korxonalar kiradi.

Bu soha murakkab tarkibga ega. Har bir mahsulot turi yoki bir-birini to‘ldiruvchi mahsulotlar bo‘yicha agrosanoat majmuasining o‘z korxonalari mavjud. Albatta, ayrim mahsulotlarni respublikada chuqur qayta ishlash darajasi yuqori emas. Masalan, respublika qishloq xo‘jaligining asosiy ekin turlaridan biri bo‘lgan paxta xomashyosining 100 foizi dastlabki qayta ishlashdan o‘tadi. Dastlabki qayta ishlangan paxtaning 14-16 foizigina respublikada ikkilamchi va chuqur qayta ishlanadi. Natijada, paxtadan juda kam miqdorda yarim tayyor va tayyor oxirgi tovarlar ishlab chiqariladi. Bu borada qilinadigan ishlar hajmi katta.

Agrosanoat majmuasi 3- sohasining ahamiyati har qanday davlat iqtisodiyoti uchun beqiyos. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida bu sohaning salmog‘i ayniqsa yuqori. Mamlakat mehnat resurslarining 22 foizidan ko‘prog‘i shu tarmoqlarda band. Yalpi ichki mahsulotning 23 foizga yaqini shu tarmoqlarda yetishtiriladi. Qishloq xo‘jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlarning nobud bo‘lmasligi avvalo shu tarmoqlar rivojiga bog‘liq. Agrosanoat majmuasi mahsulotlari eksport salohiyatini oshirish ham asosan shu tarmoqlarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Ular aholini yuqori sifatli mahsulotlar, ish joylari bilan ta‘minlashda ham alohida o‘rin tutadi.

Mamlakat aholisining moddiy turmush darajasini oshirishda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va tayyor mahsulotlarni sotuvchi tarmoqlar va xizmatlarning ahamiyati beqiyos. Bu tarmoqlarni rivojlantirish mamlakatda ishsizlikka barham berish imkoniyatlarini kengaytiradi, yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari nobud bo'lishining oldini oladi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda yetishtirilayotgan ba'zi turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 30 foizgachasi nobud bo'lmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri agrosanoat majmuasi 3- sohasining yetarli darajada rivojlanmaganligidir.

Ma'lumki, har bir tarmoqning rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, uni boshqalari bilan qo'shish mumkin emas. Shuning uchun ham alohida hududlar va alohida tarmoqlarda agrosanoat majmuasi shaklida tarmoq majmualarining roli turlicha bo'ladi. Xalq xo'jaligi agrosanoat majmuasi nimani o'z ichiga olsa, tarmoq majmualari ham o'shani o'z ichiga oladi, lekin faqat qishloq xo'jaligining ma'lum tarmog'iga tadbir qilgan holda tashkil topadi. Demak ularni e'tiborga olgan holda mamlakat, hudud hamda viloyat miqyosida ixtisoslashgan agrosanoat majmuasi shakllanishi mumkin ekan. Masalan, g'allachilikka, paxtachilikka, sabzavotchilikka, bog'dorchilikka va boshqalarga ixtisoslashgan. Ixtisoslashgan agrosanoat majmuasining tarkibini uning maqsadi belgilaydi. Shularni e'tiborga olgan holda paxtachilik agrosanoat majmuasining tarkibini bir tizimda shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Butun xalq xo'jaligidagi kabi, paxtachilik agrosanoat majmuasida ham samaradorlik unga kiruvchi pastdagi zvenolarning samaradorligi bilan aniqlanadi.

Bunday bog'liqlik ular o'rtasidagi barqaror rivojlanishni ta'minlaydi va respublika agrosanoat majmuasi boshqa tarmoqlarining samaradorligini oshirishga hissa qo'shadi.

O'zbekistonda dehqonchilikning yetakchi tarmog'ini paxtachilik tashkil etadi. Paxtachilikning asosiy mahsuloti paxta xom ashyosi, uning tolasi, chigiti va paxta moyidir. 1 tonna paxta xom ashyosidan o'rtacha 320-350 kg tola (3500 m.kv gazlama), 10 kg momiq, 620 kg chigit olinadi. O'z navbatida 620 kg chigitdan o'rtacha 110 kg moy, 225 kg kunjara, 175 kg sheluxa, 35 kg momiq, 30 kg tuk (kalta momiq) chiqadi. Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra umuman olganda, g'o'zadan olinadigan mahsulotlar asosida sanoat usulida 1200 dan ko'proq turli mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin.

## **1.2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va sotish tarmoqlarining ahamiyati va iqtisodiyotdagi o'rni**

Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida qishloq xo'jaligida turli mulkchilikka asoslangan xo'jalik yurituvchi subyektlar yuzaga kelib rivojlanmoqda. Agrar sektorda fermer va dehqon xo'jaliklarining miqdori va ishlab chiqarishdagi ulushlari ortib bormoqda. Ayniqsa, iste'mol bozorini kartoshka, sabzavot va turli xil mevalar bilan ta'minlashda ularning hissasi juda kattadir.

Qishloq xo'jaligining ishlab chiqarishida yirik tovar xo'jaliklari qatorida ko'p sonli aholi, dehqon va fermer xo'jaliklarining shakllanishi va faoliyat ko'rsatishi bu sohada mahsulot tayyorash tizimini ham tubdan yangilanishga undamoqda.

Chunki qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish bilan bir qatorda uni tayyorlash, saqlash, qadoqlash va iste'molchilarga talofatsiz yetkazib berish muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa, tez buziladigan va transportda tashishi noqulay bo'lgan mahsulotlarning qishloq xo'jaligida yetishtirilishi mahsulot bozoriga xizmat ko'rsatish tizimida raqobat muhitini kuchayishini taqozo etadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tayyorlov va sotuv kanallari quyidagilardir:

1. Ishlab chiqaruvchilar – Davlat – Iste'molchilar;
2. Ishlab chiqaruvchilar – Dehqon bozori – Iste'molchilar;
3. Ishlab chiqaruvchilar – Xususiy tadbirkorlar – Dehqon bozori – Iste'molchilar;

4. Ishlab chiqaruvchilar – Vositachilar – Tovar xom ashyo birjalari – Ulgurji (xususiy) tayyorlov tashkilotlari – Chakana savdo – Iste'molchilar;

5. Ishlab chiqaruvchilar – Qayta ishlash korxonalari – Ulgurji savdo korxonalari – Chakana savdo – Iste'molchilar;

6. Ishlab chiqaruvchilar – Qayta ishlash korxonalari – Chakana savdo – Iste'molchilar.

Dehqon bozorlarida xaridor va sotuvchilarning erkinliklarini ta'minlagan holda, o'z moddiy-texnika bazasiga (shu jumladan o'z transporti, saqlash omborxonalari, muzlatgichlari, yopiq vitrinalari) ega bo'lgan tayyorlov guruhlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Bu qilinadigan xarajatlar tez orada o'zini qoplaydi. Chunki ayni paytda ko'pchilik savdogarlar mahsulot qoldiqlarini kun yakunida uylariga olib borib, ertangi kunda qaytib bozorga olib keladilar. Yirik shaharlarda to'la infratuzilma xizmatlari majmuiga ega bo'lgan ulgurji qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bozorini tashkil etilishi va ularning o'zlari mahsulot tayyorlash, saqlash hamda ulgurji (yoki chakana) savdo bilash shug'ullanishlari yuqori samara berishi mumkin. Bunday bozorlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash, navlarga ajratish va nostandart tovarlarni qayta ishlashini yo'lga qo'yishi ularning samaradorligini yanada oshiradi. Eng muhim qadoqlash natijasida mahsulotning qayta ishlash va saqlanishi qulaylashadi. Mazkur bozordagi mahsulotni qayta ishlash va boshqa chiqindilarni chorvachilik fermerlariga sotish yoki bozorning yonida o'z chorvachilik yordamchi xo'jaliklarini tashkil qilish ham ijobiy samara berishi muqarrardir.

Dunyo mamlakatlarining ilg'or tajribasi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining realizatsiyasini ulgurji savdo birlarida tuziladigan fyuchers va boshqa shartnomalar orqali amalga oshirilishi samaraliroqligini ko'rsatmoqda. Bizning mamlakatimizda tovar xom ashyo birjalarida tuzilgan shartnomalar asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sotuv hajmlari yil sayin o'sib bormoqda.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayoni muomala sohasida yakunlanadi. Shu tufayli uning rivojlanish darajasi xo'jalik faoliyatining yakuniy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunda fermer o'zi yetishtirgan mahsulotni tasarruf etish va uni iste'molchilarga sotishda mustaqildir deb belgilab qo'yilgan. Mahsulotlarni sotish yo'llarini tanlashdagi erkinlik fermerlarga o'zlarining manfaatlariga mos keluvchi xaridorlarni izlab topish va o'zaro foydali savdo bitimlarini tuzishga imkon berishi lozim.

Davlat strategik ahamiyatiga ega bo'lgan qishloq xo'jalik, mahsulotlari-paxta va g'alla (bug'doy doni), sholi uchun qishloq xo'jalik korxonalariga davlat buyurtmalari beradi.

Davlat buyurtmalari hajmi qishloq xo'jalik mahsulotlari turlari bo'yicha quydagicha o'rnatilgan:

-bug'doy uchun rejalashtirilgan hosilning 50% miqdorida;

-paxta uchun rejalashtirilgan hosilning 70% ini davlat xarid narxlarida va qilgan 30% ini erkin shartnomaviy narxlarda sotish.

Davlat buyurtmasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 31dekabrdagi PF-2165-sonli farmoni bilan tashkil etilgan "Davlat ehtiyojlari uchun xarid etiladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan hisob-kitob qilish jamg'armasi" mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Davlat buyurtmalari fermer xo'jaliklari bilan tuziladigan shartnomalar orqali rasmiylashtiriladi. Shartnomani davlat tomonidan "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan hisob-kitob jamg'armasi"ning tijorat agentlari hisoblanadigan subyektlar:

- g'alla bo'yicha "O'zdonmahsulot" Davlat Aksiyadorlik jamiyatining joylaridagi bo'linmalari;

- paxta bo'yicha "O'zpxtasanoatsotish" Assotsiatsiyasining tumanlardagi paxta tozalash zavodlari orqali rasmiylashtiriladilar.

Jamg'arma, shuningdek davlat buyurtmasi bo'yicha mahsulot yetishtiruvchi xo'jaliklarini o'z vaqtida moliyalashtirish uchun "Agrobank" OATBni moliya agenti sifatida yollaydi.

Fermer xo'jaligining mahsulotni realizatsiya qilish bo'yicha tayyorlov tashkilotlari va boshqa korxonalar bilan munosabatlari shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Davlat buyurtmasi asosida mahsulotlarni sotish tizimini takomillashtirish yoʻnalishlari quyidagi yoʻnalishlarda amalga oshirilishi lozim :

- davlat ehtiyojlari uchun xarid etiladigan mahsulotlar uchun beriladigan imtiyozli kreditlarni oʻz vaqtida berish;

- keyinchalik qisqa muddatli imtiyozli kredit oʻrniga “fyuchers bitimlari” mexanizmini qoʻllash, yaʼni shartnomadagi maqsulot qiymatining 50% ini oldindan, hosilni garovga qoʻygan holda avans tariqasida berish va undan foydalanishni fermer ixtiyoriga berish.

- gʻallaga belgilanadigan davlat xarid narxlarini bozordagi talab va taklif asosida belgilanadigan muvazanat narxlariga yaqinlashtirish;

- davlat buyurtmasi boʻyicha hosildorlikni rejalashtirishda yerning amaldagi ball-bonitetiga qatʼiy rioya etish.

Paxta va gʻalladan tashqari boshqa mahsulotlarni fermerlar sotishning bir nechta yoʻnalishi mavjud, yaʼni ular mahsulotlarini tayyorlov tashkilotlari va qayta ishlash korxonalariga, boshqa muassasalarga, tadbirkorlarga, xususiy korxonalariga yoki bozorda sotishi mumkin.

Hozirda fermerlar mahsulotini asosan tayyorlov tashkilotlari va qayta ishlash korxonalariga shuningdek bozorda sotmoqda. Fermerlar uchun mahsulot sotish kanali faqat bitta emas, ular bir vaqtning oʻzida mahsulotning bir qismini tayyorlov tashkilotlariga yoki qayta ishlash korxonalariga bir qismini esa bozorlarda yoki boshqa xaridorlarga sotishi mumkin.

Qishloq xoʻjaligida koʻp miqdorli fermer xoʻjaliklarining shakllanishi va faoliyat koʻrsatishi sohada mahsulot tayyorlash tizimini ham tubdan yangilanishiga undamoqda. Chunki qishloq xoʻjaligida mahsulot yetishtirish bilan bir qatorda uni tayyorlash, saqlash, qadoqlash va isteʼmolchilarga talofatsiz yetkazib berish muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa, tez buziladigan va transportda tashishi noqulay boʻlgan mahsulotlarning qishloq xoʻjaligi mahsulotlari bozoriga xizmat koʻrsatish tizimida raqobat muhitini kuchayishini taqozo etadi.

Texnik xizmat koʻrsatish va moddiy texnika taʼminoti sohalarida boʻlgani kabi mahsulotlarni tayyorlash va qayta ishlash shugʻullanuvchi korxonalar ham ozchilikni tashkil qilib, oʻz mahsulotlarida yakka hokimliklarni (monopoliya mavqeini) qoʻlga kiritib olganlar. Masalan, deyarli koʻpchilik tumanlarda paxta, don, sut, sabzavot va boshqa mahsulotlarni tayyorlash va qayta ishlash sohasida 1 tadan korxonalar faoliyat koʻrsatadi.

Qishloq joylarida infrastruktura tarmogʻi - savdo-sotiq va tayyorlov tizimi taraqqiy etmagan. Tayyorlovchilar yakkahokimchilik mavqeidan foydalanib, zimmalariga olingan shartnomalarini bajarmaslik hollarini uchratish mumkin.

Eng yomon tomoni shundaki, sut, sabzavot kabi bir qator qishloq xoʻjaligi mahsulotlari tez buziluvchanligidan ularni uzoq saqlab boʻlmaydi. Tumanda ularni qabul qilish va qiluvchi korxonalar yagona ekanligidan, baʼzida mavsumiy paytlarida ularni oʻz vaqtida qabul qilib olishning iloji boʻlmaydi. Qolaversa, bunday mahsulotlarni uzoq masofadan tashib kelish imkoniyatlari chegaralangan, mahsulot sifati ham buzilishi mumkin.

Fermer xoʻjaliklari uchun mahsulot sotish yoʻnalishlari ichida bozorlari katta ahamiyat kasb etadi. Mahsulotni bevosita bozorlarda sotishning fermer uchun manfaatli tomonlari koʻp. Chunki bunda u mahsulotini oʻzi istagan narx boʻyicha (talab va taklifdan kelib chiqib) sotish imkoniyatiga ega boʻladi, shuning bilan birga bozorda u mahsulotni naqd pulga sotishi mumkin.

## **II-Bob. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va sotish tarmoqlarini rivojlanishi va samaradorlik darajasi dinamikasi**

### **2.1. “Koson-yog‘ ekstraksiya” OAJning hudud iqtisodiyotida tutgan o‘rni va mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi**

«KOSON YOG‘-EKSTRAKTSIYA» Ochiq aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlar navbatdan tashkari umumiy yigilishining 2010 yil 13 noyabrdagi 30-sonli «KOSON YOG‘-EKSTRAKTSIYA» O‘zbekiston Amerika qo‘shma korxonasini ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirish to‘g‘risidagi qaroriga asosan tashkil topgan.

Jamiyat avval Qashqadaryo viloyati Adliya boshqarmasi tomonidan 1994 yil 30 dekabrda 384- raqam bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Jamiyatning davlat tilidagi to‘liq rasmiy nomi:

«KOSON YOG‘-EKSTRAKTSIYA» Ochiq aksiyadorlik jamiyati;

Jamiyatning davlat tilidagi qisqartirilgan nomi:

«KOSON YOG‘-EKSTRAKTSIYA» OAJ.

Jamiyatning asosiy faoliyat doirasi, iste‘molchilarning manfaatlariga javob beradigan mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish, va turli faoliyat soxalarida xizmatlarga extiyojlarini qondirish xisoblanadi.

O‘z faoliyatining maqsadiga erishish uchun Jamiyat quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi:

- barcha turdagi o‘simlik va danak yog‘larini kayta ishlab undan o‘simlik yog‘i, shrot, sheluxa va soapstok ishlab chiqarish, yog‘ maxsulotlarini qadoqlash va sotish;
- sovun maxsulotlari ishlab chiqarish va sotish;
- qishloq xo‘jalik, chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, tayyorlash, qayta ishlash, saqlash, sotib olish va sotish;
- xalq iste‘moli mollari ishlab chiqarish va sotish;
- ishlab chiqarish-texnik xarakterdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish;
- ulgurji va chakana savdo, hamda savdo-vositachilik faoliyatini amalga oshirish;
- yoqilgi quyish shaxobchalarini tashkil etish, neft mahsulotlari savdosini tashkil etish;
- avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatishni tashkil qilish;
- transport va ekspeditorlik xizmatlari ko‘rsatish;

Jamiyat O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlarini ham amalga oshirishga haqlidir.

Jamiyatning mol-mulki unga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lib, Jamiyat aksiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag‘lar, asosiy fondlar va aylanma mablag‘lar, ko‘char va ko‘chmas mulklar, qimmatli qog‘ozlar, olingan daromad, qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa asoslarda olingan boshqa mol-mulklardan tashkil topadi Jamiyat o‘z faoliyatini muvofiqlashtirish, o‘z manfaatlarini ifoda etish va himoya qilish hamda birgalikdagi dasturlarni amalga oshirish maqsadida uyushmalar (ittifoqlar) va o‘zga birlashmalarda qatnashishi mumkin

Jamiyatning joylashgan manzili: O‘zbekiston Respublikasi, 180 800, Qashqadaryo viloyati, Koson shahri, S.Umarov qo‘chasi, 1- uy.

Jamiyat ustav fondining miqdori 2 392 403 200 (ikki milliard uch yuz to‘qson ikki million to‘rt yuz uch ming ikki yuz) so‘mni tashkil qiladi va nominal qiymati 2 200 (ikki ming ikki yuz) so‘m bo‘lgan 1 075 949 (bir million yetmish besh ming to‘qqiz yuz qirq to‘qqiz) dona egasining nomi yozilgan oddiy va 11 507 (o‘n bir ming besh yuz yetti) dona egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiyalardan iborat.

Endi jamiyatning 2010-2013 yillar davomida ishlab chiqargan mahsulotlar dinamikasi bilan tanishib chiqamiz va quyidagi jadvalda akus ettiramiz.

**“Koson yog‘-ekstraksiya” OAJda ishlab chiqarilgan mahsulotlar dinamikasi**

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Yillar			
		2010	2011	2012	2013
Paxta tolasi	m.tonna	25,8	23,4	24,9	26,8
O‘simlik moyi	m.tonna	17,6	15,8	10,3	16,4
Shrot	m.tonna	43,4	41,4	26,0	40,1
SHeluxa	m.tonna	29,3	22,3	16,9	28,2
Xo‘jalik sovuni	tonna	955,0	823,0	464,0	1001,0

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, korxonada o‘simlik yog‘i ishlab chiqarish hajmi 2010 yilda 17,6 ming tonnani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2013 yilda 16,4 ming tonnaga teng bo‘lgan. Biroq tahlil qilinayotgan yillarda o‘simlik yog‘i ishlab chiqarish hajmi 6,8 foizga yoki 1,2 ming tonnaga kamayganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, sheluxa va shrot ishlab chiqarish ham tahlil qilinayotgan yillarda kamayganligini ko‘rish mumkin. Biroq xo‘jalik sovuni ishlab chiqarish hajmi 104,8 foizga oshganligini ko‘rish mumkin.

Endi korxonada paxta chiqitidan olinishi kerak bo‘ladigan mahsulotlar meyorlari bilan tanishib chiqamiz va quyidagi jadvalda aks ettiramiz.

## 2.1.2-jadval

**"Koson yog‘ - ekstraksiya" OAJda 1 tonna paxta chigitidan mahsulot ishlab chiqarish meyori to‘g‘risida ma’lumot**

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Mahsulot chiqishi
1	Tozlanmagan paxta yog‘i	%	18,4
2	Shrot	%	43,2
3	SHeluxa	%	33,1
4	Tabiiy yuqotish	%	5,3
5	Tozalangan yog‘	%	88,5
6	Soapstok	%	9,9
7	Qaytmaydigan yuqotish	%	1,6

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 1 tonna paxta chigitidan 88,5 foiz tozalangan o‘simlik yog‘i, 18,4 foiz tozalanmagan yog‘, 43,2 foiz shrot va 33,1 foiz sheluxa ishlab chiqarilar ekan. Ushbu meyorlarni hisobga olgan holda qancha mahsulot kerakligi va undan qancha usimlik yog‘i olinishini bilish mumkin bo‘ladi. Shunga qarab korxonada o‘simlik yog‘i, shrot, sheluxa va xo‘jalik sovunlarini ishlab chiqarish rejasini tuzish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Keyingi jadvalda 1 tonna xo‘jalik sovunini ishlab chiqarish uchun sarflanadigan yordamchi materiallarning meyorlari keltirilgan bo‘lib, bu meyorlar asosida korxonada yillik biznes rejalarni tuzishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

### 2.1.3-jadval

**"Koson yog‘ - ekstraksiya" OAJda 1 tonna xo‘jalik sovunini ishlab chiqarish uchun sarflanadigan yordamchi materiallarning meyori to‘g‘risida ma‘lumot**

<b>№</b>	<b>Yordamchi materiallar nomi</b>	<b>O‘lchov birligi</b>	<b>Mahsulot chiqishi</b>
1	Texnik salomasi	kg/tn	246,1
2	Iste‘mol salomasi	kg/tn	140,6
3	DJK	kg/tn	210,9
4	Kaustik soda	kg/tn	145,0

2.1.3-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 1 tonna sovun ishlab chiqarish uchun 246,1 kg texnik salomasi, 140,6 kg iste‘mol salomasi va 145 kg kaustik soda kerak bo‘lar ekan. Korxonada 6790,8 tonna sovun ishlab chiqariladigan bo‘lsa, bunga 1671,2 tonna texnik saloma, 954,8 tonna iste‘mol salomasi va 984,7 tonna kaustik soda kerak bo‘lar ekan. Endi korxonada 1 tonna raxta chigitini qayta ishlashga sarflanadigan yordamchi materiallarning meyorlari bilan tanishib chiqamiz.

### 2.1.4-jadval

**"Koson yog‘ - ekstraksiya" OAJda 1 tonna paxta chigitini qayta ishlashga sarflanadigan yordamchi materiallarning meyori to‘g‘risida ma‘lumot**

<b>№</b>	<b>Yordamchi materiallar nomi</b>	<b>O‘lchov birligi</b>	<b>Mahsulot chiqishi</b>
1	Ekstrabenzin	kg/tn	3,5
2	Kaustik soda	kg/tn	9,8
3	Filtr mato (belting)	p/m	0,2
4	Oqlovchi tuproq	kg/tn	10,0
5	Ishqoriy faollangan ko‘mir	kg/tn	2,5

Ushbu jadval ma‘lumotlarini o‘rganimizda 1 tonna paxta chigitini qayta ishlab uchun 3,5 kg ekstrabenzin, 9,8 kg kaustik soda, 10 kg oqlovchi tuproq va 2,5 kg ishqoriy faollangan ko‘mir kerak bo‘lar ekan. Bu meyorlarni bilish korxonada uchun biznes rejalarni tuzishda va tannarxini bilgan holda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlardan olinadin foyda ko‘rsatkichlarini aniqlash mumkindir.

## **2.2. Korxonada mahsulotlarni qayta ishlashning samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili**

Korxonalar davlat buyurmasidan tashqari barcha mahsulotlarini erkin va boshqa turdagi baholarda sotmoqdalar. Erkin baho bozorda mahsulot sotuvchi va uni sotib oluvchilar o'rtasida, ularning iqtisodiy manfaatlarini hamda bozor talabi va taklifi asosida shakllanadi, ya'ni belgilanadi. U tarmoqlarning mahsulot oldi-sotdi munosabati bo'yicha tuzilgan shartnomalarida o'z aksini topadi. Shuning uchun erkin baholarni shartnoma baholari deb ham atashadi. Uning absolyut miqdori mahsulot sotish davriga, unga bo'lgan talabga hamda mahsulot sifatiga bog'liq.

Paxta tolasining o'rtacha jahon bahosi asosan N'yu-York hamda Liverpool xomashyo tovar birjalaridagi savdoda belgilanadi. 1990-2002 yillarda paxta tolasining jahon bozoridagi bahosi salkam 40 foizga, bug'doy bilan guruchning bahosi esa 8-12 foizga pasaygan. Bunday hol shuning uchun ro'y berdiki, talabni o'rindoshlik mahsulotlari tolasiga talab mavjudligi bilan qondirish ancha marakkab, lekin paxta tolasining o'rnini boshqa mahsulotlar bilan qondirish imkoniyati ancha yuqori.

2005 yildan boshlab respublikamiz poytaxi Toshkent shahrida "paxta yarmarkasi" tashkil etildi. 2013 yil mamlakatimiz fermer xo'jaliklari tomonidan 3,450 mln. tonna paxta hosili etishtirildi. 2011 yilning 13-14 oktyabr kunlari Toshkent shahrida "8-paxta yarmarkasi" bo'lib o'tdi. Bunda 300 mamlakatdan vakillar kelib, 650 ming tonna tola uchun shartnomalar imzolandi.

Xo'jaliklarning moliyaviy natijalari samaradorligini yanada yaxshilash uchun xo'jalik ayniqsa ayrim mahsulot turlarini realizatsiya qilishning rentabelligini to'g'ri aniqlash kerak. Ayrim mahsulot turlarini realizatsiya qilishning rentabellik ko'rsatkichlari xar qaysi mahsulot turini yetishtirish xarajatlarining samaradorligini ko'rsatadi, davlatning fermer xo'jaliklaridan sotib olinadigan mahsulotlariga to'g'ri narx qo'yish va ishlab chiqarishning kelgusida rivojlanishi uchun aniq choralar belgilash imkonini beradi.

Qishloq xo'jalik korxonalarini yetishtirgan mahsulotlarni sotishga Respublika Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining, Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasining joylardagi bo'limlari hamda boshqa manfaatdor tashkilotlar amaliy yordam berishlari zarur. Shu bilan birga, qishloq xo'jalik korxonalarida bozorni o'rganib, savdo-sotiq ishlarini rivojlantiradigan marketing bo'limlari tashkil etib, ularni rivojlantirishga alohida e'tibor berish lozim.

Qishloq xo'jalik korxonalarini ishlab chiqarishi samarali rivojlanishini ta'minlash maqsadida yetishtirgan mahsulotlarining ma'lum qismini o'z takror ishlab chiqarishi uchun urug'likka, ko'chat yetishtirishga, yemga, ozuqaga sarflaydi, ishchi-xizmatchilarini ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida ish haqi evaziga, umumiy ovqatlanishga beradi. Bularning hammasi hozircha tannarxda beriladi. Hozirgi davrda xo'jaliklar aholini ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida iqtisodiy nochor oilalarga, keksalarga, bolalar uylariga hayriya shaklida ham o'z mahsulotlarini bermoqdalar. Bunday munosabatlarda xo'jaliklar daromad olmaydilar.

Tovar ishlab chiqaruvchi bozorni qamrab olishning, uchta variantidan birini tanlashi mumkin:

1. Agar ajratib olingan sigment tahlili ularning orasida farq mavjud emasligini ko'rsatsa, tadbirkor ularga e'tibor qilmasligi va bozorning hammasiga tovarini taklif qilishi mumkin. Bunday hollarda maqsadi bir xil talab va ehtiyojli xaridorlarning ko'plab jalb etish bo'lgan marketing dasturi tuziladi. Bozorni qamrab olishning bunday strategiyasi differentsiyalashmagan marketing deb ataladi. Bunday marketing tejamli bo'lib, katta sarf talab qilmaydi. Biroq bir necha korxonalar bir vaqtning o'zida bunday strategiyani qo'llay boshlasa, shafqatsiz raqobat boshlanadi va boshqa variantlarni qidirishga to'g'ri keladi.

2. Korxonalar bozorning bir nechta sigmentiga ishlashga qaror qildi, ularning har biri uchun o'ziga xususiyatlarini hisobga olgan holda alohida marketing dasturi tayyorlaydilar (tovar, baholar, reklama va boshqa). Bunday holatlarda mahsulotlarning sotib olinishi o'sishiga umid qilish mumkin, chunki u bozorning har bir sigmenti talabiga moslashadi.

Bu differentsiallashtirilgan marketing. Bunday strategiyadan keng doirada tovar ishlab chiqib, ularni bozorga chiqara olishga qurbi etadigan, etarli mablag`ga ega yirik kompaniyalarning foydalanishi tavsiya etiladi.

3. Tovar ishlab chiqaruvchi kuchlarni bitta sigmentga kontsentratsiyalash haqida qaror qabul qiladi. Bozorni qamrab olishning bunday strategiyasi kontsentratsiyalashgan marketing deb ataladi. U riskning yuqori darajadali bilan bog`liq, chunki tanlangan sigment ishonchni oqlay olmasligi mumkin: unga raqobatchi paydo bo`lib, mahsulotga talab tushib ketish ehtimoli bor.

Bozorni qamrab olish sigmentini tanlashda quyidagilarni e`tiborga olish lozim:

- resurslar cheklangan holatida kontsentratsiyalashtirilgan marketing strategiyasi eng afzali hisoblanadi;
- sifat jihatdan o`xshash tovarlarga, masalan, tuz, shakar, kraxmal va boshqa) differentsiallashtirilgan marketing; turli parametrlari bo`yicha bir-biridan farqlanadiganlarga (go`sht va sut mahsulotlari, meva-sabzavot konservalari va hokazo) differentsiallashtirilgan yoki kontsentratsiyalashgan marketing ko`proq mos keladi;
- bozorga yangi tovar bilan chiqishda differentsiallashtirilgan yoki kontsentratsiyalangan marketingdan foydalanib. yangilikning bitta variantini taklif qilish maqsadga muvofiq.

Bozorning eng foydali sigmenti quyidagi talablarga javob berishi kerak: sotuvning eng yuqori hajmi va uning o`shirishining yuqori sur`atlari, rentabellikning eng yuqori darajasi (daromad normasi) sust raqobat.

Bozorni sigmentlagandan keyin korxonalar raqobatchilarni aniqlash va sotishning maksimal hajmini ta`minlash uchun tovarlarning guruhlanishi haqidagi masalani hal qilishi zarur.

Ma`lumki, qayta ishlashni zamonaviylashtirish va rivojlantirish - qo`shimcha qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko`paytirish, yangi ishchi o`rinlarni tashkil etish, respublikaga chet el valyuta tushumini ko`paytirishga olib keladi

Toshkent, Farg`ona, Samarqand, Qarshi va Urganch shaharlarida «Uzbekistan Agrominitech Expo-2009» ko`rgazma-savdolarning yakunlariga ko`ra, respublika miqyosida mini-texnologiya va ixcham uskunalarni xarid qilish bo`yicha umumiy qiymati 88,3 mlrd. so`mga teng bo`lgan 2009 ta shartnoma va kelishuv bayonnomalari imzolandi.

Tahlillarga ko`ra amalga oshirilgan loyihalarning 21.4 % tashabuskorlarning o`z mablag`i xisobidan, 78.6% bank kreditlariga to`g`ri keladi. Ko`rgazma-savdolarda dunyoning 22 davlatidan, xususan Germaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Avstriya, Polsha, Isroil, Janubiy Koreya, Xitoy, Turkiya, Rossiya va boshqa mamlakatlardan 100 dan ortiq kompaniyalar, shuningdek, respublikamizdagi mahalliy kompaniyalar ishtirok etishdi.

«Uzbekistan Agrominitech Expo-2009» ko`rgazma-savdolari natijalari bo`yicha xujjatlar asosan quyidagi yo`nalishlarda imzolangan:

- *non, makaron va qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo`yicha umumiy qiymati 5,3 mlrd. so`mlik 126 ta;*
- *parrandachilikni rivojlantirish bo`yicha qiymati 3,0 mlrd. so`mlik 305 ta;*
- *sutni qayta ishlash va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish bo`yicha qiymati 12,7 mlrd. so`mlik 106 ta;*
- *meva va sabzavotlarni qayta ishlash bo`yicha qiymati 5,5 mlrd. so`mlik 73 ta;*
- *go`shtni qayta ishlash bo`yicha qiymati 2,8 mlrd. so`mlik 20 ta;*
- *mahsulotlarni qadoqlash uskunalari bo`yicha qiymati 1,0 mlrd. so`mlik 19 ta;*
- *tegirmon uskunasi bo`yicha qiymati 658,1 mln. so`mlik 85 ta;*
- *o`simlik yog`i ishlab chiqarish bo`yicha qiymati 250,2 mln. so`mlik 27 ta;*
- *kasanachilikni rivojlantirish bo`yicha qiymati 240,4 mln. so`mlik 75 ta ;*
- *sovutish va muzlatish uskunalari bo`yicha qiymati 561,0 mln. so`mlik 12 ta;*
- *issiqxona tashkil etish bo`yicha qiymati 495,8 mln. so`mlik 4 ta;*
- *chorvachilikni rivojlantirish bo`yicha qiymati 386,2 mln. so`mlik 12 ta;*

Qarshi shahrida o'tkazilgan «Qarshi Agrominitech Expo-2009» ko'rgazma-savdolarning yakunlariga ko'ra, respublika miqyosida mini-texnologiya va ixcham uskunalarni xarid qilish bo'yicha umumiy qiymati 25,6 mlrd. so'mga teng bo'lgan 798 ta shartnoma va kelishuv bayonnomalari imzolandi.

Xorijiy kompaniyalar tomonidan meva-sabzavot mahsulotlari, go'sht va sutni qayta ishlash bo'yicha to'liq liniyalar, non va makaron mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyalari, mahsulotlarni qadoqlash va saqlash uskunalari, chorvachilik, terini qayta ishlash, kasanachilik va parrandachilikni rivojlantirish, issiqxona tashkil etish, bog'dorchilik va boshqa yo'nalishlardagi uskunar namoyish etildi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalaridan 138,7 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilga nisbatan 7,3 foizga o'sishiga erishildi.

O'tgan davrda 1848,6 mln.so'mlik investitsiya kiritish evaziga 136 ta yangi kichik sanoat korxonasi yangidan tashkil etildi. Natijada Ushbu soxaga karashli korxonalar soni (mikrofirmalar bilan birga) 805 tani tashkil etdi va kushimcha 774 ta yangi ish urni yaratildi.

O'tgan davrda 28 ta korxonaning mahsulot ishlab chiqarish kuvvatidan unumli darajada foydalanishga erishildi.

Oziq-ovqat sanoati sohasiga qarashli 57 ta korxonaga 2748,9 mln. so'mlik investitsiya kiritish evaziga modernizatsiya va texnologik qayta qurollantirish ishlari amalga oshirilishi natijasida 816 ta yangi ish urni yaratildi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarilayotgan 20 ta tur mahsulotdan 15 ta turi buyicha ishlab chiqarishda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sishiga erishildi (non va non mahsulotlari 112,4 foiz, makaron mahsulotlari 117,8 foiz, go'sht mahsuloti 146,6 foiz, sut mahsulotlari 144,1 foiz, sariyog 131,9 foiz, mol yogi 146,2 foiz, kandolat mahsulotlari 131,9 foiz).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 iyundagi PQ 651-sonli "2007-2011 yillardagi davrda yog'-moy sanoati korxonalarini modernizatsiya qilish va texnikaviy qayta jihozlash Dasturi to'g'risida"gi qaroriga asosan "Koson yog'-ekstraksiya" QKda 2007-2011 yillarda 22 ta eski uskunani almashtirish bo'yicha Dastur ishlab chiqilgan bo'lib, 2009 yilning I-choragida 1 ta liniyani modernizatsiya qilish belgilanib, o'tgan davrda 16 mln.so'mga 1 ta uskuna olib kelindi va qaytadan jihozlandi. Natijada qadoqlangan o'simlik yog'i ishlab chiqarish quvvati 500 but/soatdan 800 but/soatga yetkazildi.

Sohaga karashli korxonalar tomonidan o'tgan davrda 3039,7 ming AQSH dollari miqdorida sanoat mahsuloti eksport kilindi.

Jumladan, eksport hajmi G'uzor tumanidagi «G'uzor flour» MCHJda 954,5 ming AQSH dollarini, Qarshi shahridagi «Dunyo-M» OXJda 1322,7 ming AQSH dollarini, Shahrizabz tumanidagi «Don xalq rizqi» OXJda 629,8 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Quyidagi 2.2.1-jadvalda Koson yog'-ekstratsiya OAJda keyingi 2011-2012-2013 yillar davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlar dinamikasi tahlil qilingan bo'lib, bundan ko'rinib turibdiki, paxta chigitidan 18,4 foizi tozalanmagan paxta yog'i va qolgan 81,6 foizidan tozalangan paxta yog'i olinganligini ko'rish mumkin. Lekin tahlil qilinayotgan yillarda tozalangan paxta yog'i 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 2663,2 tonnaga kamaygan. 1 litr qadoqlangan paxta yog'i 95 donaga, 3 litrli qadoqlangan paxta yog'i esa 51978,3 donaga ko'payganligini ko'rish mumkin. Demak, 3 l qadoqlangan paxta yog'iga talabni ko'chayishi natijasida ularni ko'paytirishga alohida e'tibor qaratilgan.

## 2.2.1-jadval

**"Koson yog‘ - ekstraksiya" OAJda 2011-2013 yillarda qayta ishlangan  
paxta chigiti va ishlab chiqarilgan mahsulotlar to‘g‘risida tahliliy ma‘lumot**

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Yillar			2013 yilda 2011 yilga nisbatan o‘zgarishi (+;-)
			2011	2012	2013	
<b>1</b>	<b>Paxta chigiti</b>	<b>tn</b>	<b>95833,3</b>	<b>60185,2</b>	<b>92824,1</b>	<b>-3009,2</b>
3	Jami xom-ashyosi	tn	290404,0	182379,4	281285,2	-9118,8
<b>4</b>	<b>Tozalanmagan paxta yog‘i</b>	<b>tn</b>	<b>17633,3</b>	<b>11074,1</b>	<b>17079,6</b>	<b>-553,7</b>
5	Paxta shrot	tn	41400	26000	40100	-1300
6	Paxta sheluxa	tn	22300	16900	28200	5900
7	Tabiiy yuqotish	tn	5079,2	3189,8	4919,7	-159,5
<b>8</b>	<b>Tozalangan paxta yog‘i</b>	<b>tn</b>	<b>84812,5</b>	<b>53264,0</b>	<b>82149,3</b>	<b>-2663,2</b>
9	Soapstok	tn	9487,5	5958,3	9189,6	-297,9
10	Qaytmaydigan yuqotish	tn	1533,3	963,0	1485,2	-48,1
11	Qadoqlangan paxta yog‘i	tn	80571,8	50600,8	78863,3	-1708,5
12	1 l qadoqlangan paxta yog‘i	dona	41400	41500	41495	95
13	3 l qadoqlangan paxta yog‘i	dona	26844	16853	78822	51978
14	Xo‘jalik sovuni ishlab chiqarish	tn	823,0	464,0	1001,0	178
15	Jami xo‘jalik sovuni	dona	27163	27163	27163	-

**"Koson yog‘ - ekstraksiya" qo‘shma korxonasining mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari  
to‘g‘risida tahliliy ma‘lumot**

№	Ko‘rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil		2013 yilda 2011 yilga nisbatan o‘zgarishi (+;-) hisobida
		qiymati	ulushi %	qiymati	ulushi %	qiymati	ulushi %	
1	Xom ashyo	20572545,5	65	11504800,5	65	22256147,6	65	1683602,1
2	Yordamchi metariallar	2848506,3	9	1734569,9	9,8	3458262,9	10,1	609756,6
3	Ish xaqi	3798008,4	12	2000065,3	11,3	3834905,4	11,2	36897
4	Ishchi xodimlarni malakasini oshirish va rag‘batlantirish	759601,7	2,4	407092,9	2,3	753285	2,2	-6316,7
5	Amortizatsiya ajratmalari	759601,7	2,4	407092,9	2,3	753285	2,2	-6316,7
6	Elektr energiya	1424253,2	4,5	796486,2	4,5	1575050,4	4,6	150797,2
7	Issiqlik energiya	1487553,3	4,7	849585,3	4,8	1609290,7	4,7	121737,4
	<b>Ishlab chiqarish xarajatlari</b>	<b>31650070</b>	<b>100</b>	<b>17699693</b>	<b>100</b>	<b>34240227</b>	<b>100</b>	<b>2590157</b>

**"Koson yog' - ekstraksiya" OAJning moliyaviy natijalari to'g'risida  
tahliliy ma'lumot**

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Yillar			2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarishi	
			2011	2012	2013	(+;-)	(%)
1	Mahsulot sotishdan sof tushum	ming.so'm	38480085	22909741	43102551	4622466	112,0
2	Sotilgan mahsulotlarni tannarxi	ming.so'm	31650070	17699693	34240227	2590157	108,2
<b>3</b>	<b>Foyda (zarar)</b>	<b>ming.so'm</b>	<b>6830015</b>	<b>5210048</b>	<b>8862324</b>	<b>2032309</b>	<b>129,7</b>
4	Davr xarajatlari	ming.so'm	4053043	3637198	6509526	2456483	160,6
5	Asosiy faoliyatdan foydasi	ming.so'm	3177339	1763080	2899337	-278002	91,3
6	Moliyaviy faoliyatdan daromad	ming.so'm	153551	297292	55292	-98259	36,0
7	Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	ming.so'm	1031214	460389	490757	-540457	47,6
8	Umumxo'jalik faoliyatidan foydasi	ming.so'm	2299676	1599983	2463872	164196	107,1
9	<i>Rentabellik darajasi</i>	%	21,6	29,4	25,9	4,3	1,2 martaga ko'paygan
10	Daromad solig'i va boshqa yig'imlar	ming.so'm	472927	336920	529817	56890	112,0
<b>11</b>	<b>Hisobot davrida sof foydasi</b>	<b>ming.so'm</b>	<b>1826749</b>	<b>1263062</b>	<b>1934055</b>	<b>107306</b>	<b>105,9</b>
<b>12</b>	<b><i>Rentabellik darajasi</i></b>	%	<b>5,8</b>	<b>7,1</b>	<b>5,6</b>	<b>-0,2</b>	<b>1,04 martaga kamaygan</b>

## Korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sotilishi to'g'risida

## tahliliy ma'lumot

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Yillar			2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarishi (%)
			2011	2012	2013	
1	Qadoqlangan paxta yog'i	tn	80571,8	50600,8	78863,3	97,9
2	Paxta soapstoki	tn	9487,5	5958,3	9189,6	96,8
3	1 l qadoqlangan paxta yog'i	dona	41400	41500	41495	100,2
4	3 l qadoqlangan paxta yog'i	dona	26844	16853	78822	293,6
5	Qadoqlangan soya yog'i	tn	1078	1078	1078	100
6	1 l qadoqlangan soya yog'i	dona	1225	1225	1225	100
7	Soya soapstoki	tn	109,8	109,8	109,8	100
8	Xo'jalik sovuni ishlab chiqarish	tn	823,0	464,0	1001,0	121,6
9	Jami xo'jalik sovuni	dona	27163	27163	27163	100
10	Paxta shroti	tn	41400	26000	40100	96,8
11	Paxta sheluxa	tn	22300	16900	28200	126,4
12	Soya shroti	tn	5165,3	5165,3	5165,3	100
Jami sotilgan mahsulot		tn	160935,4	106276,2	163707	101,7
Jami sotilgan mahsulot		dona	96632	86741	148705	153,9
Sotishdan tushgan pul tushumi		Ming so'm	38480085	22909741	43102551	112,0

Endi korxonaning mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar ko'rsatkichini tahlil qilib chiqamiz va 2.2.2-jadvalda aks ettiramiz. Xarajatlar tarkibini tahlil qilganimizda eng katta xarajat xom-ashyo uchun sarflanganligi, ya'ni jami xarajatda uning ulushi 65 foizni tashkil etgan va ish haqi xarajatlari esa 11-12 foizga teng bo'lgan. Jami ishlab chiqarish xarajatlari 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 108,2 foizga, ya'ni 2590157 ming so'mga oshganligini ko'rish mumkin. Ishlab chiqarish xarajatlarning o'sishi mahsulot tannarxiga salbiy ta'sir ko'rsatib, tannarni oshishiga olib

keladi va natijada aholi uchun ishlab chiqariladigan o'simlik yog'ining bahosi oshib ketishiga olib keladi. Shuning uchun sohaga investitsiyalarni jalb qilish hisobiga mahsulot turini ko'paytirish, ya'ni soya yog'i, zig'ir yog'i, masxar yog'larini ko'paytirish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki bugungi kunda qishloq xo'jaligida moyli ekinlar maydonini kengaytirish, ya'ni zig'ir, masxar o'simliklarini ko'proq yetishtirishni yo'lga qo'yish korxonalar samaradorligini oshirishga olib keladi.

"Koson yog'-ekstraksiya" OAJning moliyaviy faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, mahsulot sotishdan sof tushum tahlil qilinayotgan yillarda 112 foizga yoki 4622466 ming so'mga oshgan. Sotilgan mahsulot tannarxi ham 108,2 foizga oshganligini ko'rish mumkin. Korxonaning rentabellik darajasi 2011 yilda 21,6 foizni, 2012 yilda 29,4 foizni va 2013 yilda esa 25,9 foizni tashkil etgan. Demak, bu ko'rsatkich 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 1,2 martaga oshgan. Biroq, 2012 yilga nisbatan esa 1,14 martaga kamayganligini ko'rish mumkin. Korxonaning jami sof foydasi 105,9 foizga ko'payib, bu ko'rsatkich 2011 yilda 5,8 foizni, 2012 yilda 7,1 foizni va 2013 yilda esa 5,6 foizni tashkil etgan. Tahlil qilinayotgan yillarda ko'rinib turibdiki, rentabellik darajasi 1,04 martaga kamayganligini ko'rish mumkin.

Korxonaning rentabelligini oshirish uchun, mahsulot hajmini ko'paytirish va uning turini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Kelgusida jamiyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish boshqaruv raisining bilimdonligiga, malakasiga va boshqaruvda o'ziga xos bo'lgan usullarni qo'llash orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

### **2.3. Korxonada mahsulotlarni sotishning hozirgi holati tahlili**


Qishloq xo'jaligining eng asosiy vazifasi respublika hududidagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarining xomashyoga, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talablarini qondirishdir. Shu bilan birgalikda, tarmoq tashqi bozor talabini qondirishda ham qatnashishi maqsadga muvofiqdir.

Bu talablar qishloq xo'jaligi uchun davlatning paxta va g'allaga bo'lgan eng muhim buyurtmalarini bajarishga asoslanadi. Bu mahsulotlarga davlat buyurtmalarining miqdori ularni yetishtirish bo'yicha rejalashtirilgan hajmga nisbatan 30 foiz darajasida belgilangan. Bu o'rinda eslatib o'tish kerakki, qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tarmoqda yetishtirilgan mahsulotlarning, chunonchi, urug'lik, yem-xashak, ozuqa kabilarning ma'lum bir qismi ichki talabni qondirishga sarflanadi. Aks holda tarmoqda takror ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishi ta'minlanmaydi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishining kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlanishini ta'minlash uchun yetishtirilgan mahsulotlarning bir qismi bu boradagi talablarini qondirish maqsadida ishchi-xizmatchilarga ish haqi o'rniga natura holda beriladi, ularning ovqatlanishlari uchun ajratiladi. Shuningdek, aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida ularga ma'lum miqdordagi mahsulotlar tekinga beriladi.

Hozirgi davrda qishloq xo'jalik korxonalarida yetishtirilayotgan mahsulotlar muayyan kanallar bo'yicha taqsimlanmoqda va sotilmoqda, (2.3.1-chizma).

### O'zbekiston Respublikasida yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining taqsimlanishi va sotilishi



Chizmadan ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jalik korxonalarini, avvalo, yetishtirgan paxta, don mahsulotlarining davlat buyurtmasida ko'rsatilgan miqdorini «O'zpaxtasanoatsotish» uyushmasi hamda «O'zdonmahsulot» kompaniyasining joylardagi korxonalarini bilan tuzilgan shartnomalar asosida sotadilar. Bu turdagi mahsulotlarning davlat buyurtmalaridan ortiqcha qismi erkin savdoda shartnomalar asosida qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalariga sotiladi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, bozor iqtisodi sharoitida korxonalariga yetishtirgan mahsulotlarini erkin sotish imkoniyatlari to'liq borilishi zarur. Shuning uchun davlat buyurtmalari o'rniga iqtisodiy jihatdan rivojlangan demokratik davlatlardagidek mahsulotlarni erkin sotib olish bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish lozim. Shu orqali davlatning iqtisodiyotni erkinlashtirish siyosati amalga oshirilishi uchun to'liq imkoniyat yaratiladi. Bunda korxonalar o'z ishlab chiqarishini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlantirish uchun zarur mahsulotlarni ichki talablarni qondiradigan miqdorda ajratishlari lozim. Buning uchun ham ichki shartnomalar tuzish kerak. Ularda xo'jalik ichidagi munosabatlarni amalga oshirish tartibi to'liq ko'rsatilishi zarur.

Shundan so'ng ular qolgan mahsulotlarini shartnomalar asosida erkin bozorlarda, jumladan, birjalarda, ko'rgazmalar yordamida, auksionlar hamda chakana savdolar orqali sotishlari mumkin.

Erkin bozor sharoitida mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan barcha munosabatlar hamma talablarga javob bera oladigan darajadagi shartnomalar asosida amalga oshirilishi taqozo etiladi.

Mahsulotlarning realizatsiya qilish hisobiga foyda olish rejasining muvaffaqiyatli bajarilishi o'z navbatida korxonaning moliyaviy xolati barqaror bo'lishini taminlaydi. Demak ishlab chiqarishning moliyaviy ishlariga, natijalariga shu jumladan mahsulotlarning rentabellik darajasining bajarilishiga realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi va mahsulotlarning sifati bevosita tasir etadi. Shuning uchun ham realizatsiya qilingan mahsulotlarning rentabellik darajasi asosan korxonaning yaxshi yoki yomon yuritilishiga, mahsulot tannarxining qanday xosil bo'lishiga va ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatining foyda yoki zarar ko'rishiga bog'liqdir.

Sotish tovar assortimentini rejalashtirish va korxonada mahsulotlarining realizatsiya narxini belgilashni o'rganish uchun marketing xizmati zarur. Maxsus xizmatni tashkil etishning maqsadga muvofiqligi qator omillarga bog'liq, ular: ishlab chiqariladigan mahsulotlar sonining nomi, ularni chiqarishning rejalashtirilayotgan hajmi, raqobatchi korxonalar va raqobatchi tovarlar soni hamda hajmi bozorning sig'imi, sotishni reklama qilish va rag'batlantirish bo'yicha ish hajmi. Masalan, agar qishloq xo'jaligi korxonada ishlab chiqargan mahsulotlarining asosiy qismini ma'muriy to'lgan chegarasida, yog' zavodi yoki go'sht kombinatiga realizatsiya qilsa, u marketing xizmati barpo etishdan qo'shimcha samara olmaydi. Mamlakatning boshqa hududlari bozorlarida doimiy ishlovchi, shuningdek, xususiy qayta ishlash sanoatiga ega korxonalar marketing bo'yicha mutaxassis mahsulot realizatsiyasining yuqori samarasini ta'minlay olmaydi.

Marketing xizmatini quyidagi hollarda barpo etish maqsadga muvofiq: birinchidan, keng assortimentda mahsulot ishlab chiqaruvchi yirik korxonalarda (agrofimlar, assotsiatsiyalar, yirik bog'dorchilik va polizchilik xo'jaliklari, qayta ishlash korxonasi), ikkinchidan, salmoqli qismdagi mahsulotlarini o'zlarining ma'muriy tumanlari yoki viloyatlari chegarasidan tashqarida realizatsiya qiluvchi xo'jaliklarda qoidagi ko'ra, ushbu ixtisoslashgan korxonalar (urug'chilik, bog'dorchilik va boshqa).

Tuman marketing xizmatining asosiy funksiyalari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- oziq-ovqat bozorlarining iste'molchilar talabi mahsulotlarining mavjudligi va harakati narx monitoringi haqida axborotlarni yig'ish umumlashtirish va tahlil qilishni tashkil etish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlariga iste'molchilar talabini prognozlash, iste'molchilar buyurtmalarini yig'ish va mamlakatning boshqa hududlaridagi mahsulot reklamasi haqida, biznes-reja va mahsulot marketingi, ularning bajarilishi risklari baholash va foyda o'lchami, marketing qarorlarining samaradorligi masalalarini ishlab chiqish bo'yicha maslahatlar berish.

Tuman marketing xizmati tarkibida marketing bo'yicha mutaxassislar dasturchi faoliyatni avtomatlashtirish, dasturiy ta'minlash va xizmat boshlig'i bo'lishi zarur. Uning ishchilari soni bajariladigan ish hajmiga bog'liq bo'ladi.

Realizatsiya qilinadigan mahsulotning har bir turiga o'zining sotish (o'tkazish) yo'llari va savdoning tashkiliy, shakli mos keladi. Vositachilarning soniga bog'liq holda nol, bir, ikki va hokazo darajadagi realizatsiya vositalarini ajratadilar. Nol darajadagi vosita-tovarini bevosita iste'molchilarga sotadigan tovar ishlab chiqaruvchilar hisoblanadi. Bevosita savdoning eng keng tarqalgan usuli-tovar ishlab chiqaruvchiga tegishli do'konlar orqali savdo qilishdir.

Bir darajali vosita chakana savdoda bo'ladigan birgina vositachini o'z ichiga qamrab oladi. Ikki darajali vosita-bu ikkita vositachi (ulgurji va chakana savdo) uch darajalisi-uchta vositachi (ulgurji, mayda ulgurji va chakana savdo) dan iborat.

O'simlikchilik mahsulotlarining (paxta, don, kartoshka, sabzavot va boshqa) va sanoat tovarlarining asosiy qismi ulgurji savdo orqali sotiladi. Sut etishtiriladigan chorvachilikda tovar ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarini mayda partiyalarda va har kuni realizatsiya qiladilar.

Ulgurji savdo-tovarlarni sotib olib saqlaydigan, keyin ularni boshqa savdo tashkilotlariga chakana savdoda qayta sotadigan yuridik va jismoniy shaxslar yig'indisi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ulgurji xaridorlari sifatida tayyorlov tashkilotlari tovar birjalari, qayta ishlovchi

korxonalar kabilar chiqadi. Ulgurji savdo tovar ishlab chiqaruvchilarga mahsulotlarni joyida iste'molchilar bilan minimum kontaktda bo'lgan holda sotish imkonini beradi.

Chakana savdo-bu tovarlarni shaxsiy oilaviy va uyda foydalanish uchun oxirgi iste'molchilarga sotish bilan bog'liq tadbirkorlik faoliyati. Ulgurji savdoning birjalar, auksionlar, yarmarkalar orqali o'tkazilishi keng tarqalgan. Savdolarni birja orqali o'tkazishning natijasi-sotuvchi va xaridor o'rtasida bitim tuzilishidir.

Bozor infratizilmasida birja savdosi ma'lum o'rin egallaydi, u orqali qoidaga ko'ra, hamma tovar hajmining 5-10% realizatsiyasi amalga oshiriladi. Bu esa bozordagi narxni baholashga etarli. Ulgurji oziq-ovqat bozorlari 20-25 % tovarlarning o'tishini ta'minlaydi. Ularning asosiy massalari (65-75 %) esa tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan xususiy o'zlarining tijorat tuzilmalari va xom ashyo iste'molchilariga realizatsiya qilinishi kerak, bu esa vositachilar sonining kamayishi va yakuniy mahsulot narxining pasayishiga imkon beradi.

Yaqin-yaqingacha mahsulot realizatsiyasida davlati xaridi paxta va g'alla uchun davlat tomonidan qishloq xo'jalik mahsulotlari, xom-ashyo oziq-ovqat mahsulotlarini tovar ishlab chiqaruvchi (ta'minotchi) lardan qayta ishlash yoki o'zaro foydali shartlarda iste'molchi (xaridor) larga realizatsiya qilish uchun tashkiliy tarzda sotish olish shakli ustun edi. Bundan tashqari, ehtiyojlarni va sub'ektlar ehtiyojlarini qondirish uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini va oziq-ovqatni yetkazib berish, tovar ishlab chiqaruvchi va iste'molchi (xaridor) orasida qishloq xo'jalik mahsulotlaridan va oziq-ovqatlardan foydalanish uchun tashkiliy shartnoma munosabatlari shakli ham mavjud.

Tovar ishlab chiqaruvchilarning qayta ishlash sanoati va savdo korxonalar bilan bevosita aloqalari o'ta samarali hisoblanadi. Bu qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, uni ishlab chiqarish yuklab tushirish qayta ishlash va saqlashda yo'qotishlarni kamaytirishning Haqiqiy amaldagi choralaridan biridir.

O'z oldida turgan masaladan kelib chiqib, ishlab chiqaruvchilar uning mahsulotlari iste'molchiga realizatsiya qilinishi amalga oshishi bo'yicha eng optimal vositani tanlab oladilar.

Mahsulotlarni muvaffaqiyatli realizatsiya qilish, qishloq xo'jaligi xom ashyosi va oziq-ovqatlari bozorlarining rivojlanish va funktsiyalashuv darajasiga ham bog'liq.

### **III-Bob. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va sotish kanallarini rivojlantirish va takomillashtirish yo'llari**

#### **3.1. Mahsulotlarni qayta ishlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari**

O'zbekiston sanoatining rivojlanish xususiyatlari sanoat tarmoqlarining qayta ishlash sohalarida fond qaytimi va mehnat unumdorligining jadal o'sish tendensiyasiga erishilgani bilan ajralib turadi. Mehnat unumdorligining o'rtacha yillik o'sishi sanoat bo'yicha 2005-2011 yillarda 9 foizni tashkil qildi. Sanoatning mashinasozlik, yengil, oziq-ovqat tarmoqlarida o'sish darajasi ancha yuqori bo'lgan (o'rtacha 15,4 foiz), yoqilg'i-energetika tarmoqlarida 3,4 foizni tashkil qildi. Qayta ishlanish darajasi yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishga mo'ljallangan tarmoqlarda fond qaytimining jadal o'sish darajasida ijobiy tendensiya kuzatilgan. Bu tarmoqlarda fond qaytimi o'rtacha 1,8 marta, jumladan, mashinasozlikda 2 marta, yengil sanoatda 1,5 marta, oziq-ovqat tarmog'ida 1,7 marta ortgan.

## O'zbekistonda raqobat afzalligiga ega bo'lgan sanoat tarmoqlari

Guruhlar	Iqtisodiyot sektorlari	Iqtisodiyot tarmoqlari	Raqobat afzalliklari
Kuchli raqobat mavqeiga ega bo'lgan tarmoqlar	Xomashyo va qazib chiqarish	Rangli metallurgiya, paxtani qayta ishlash, neft-gaz, og'ir sanoat	Yuksak raqobatdoshlik afzalliklariga ega
Nisbiy raqobatdoshlik mavqeiga ega bo'lgan tarmoqlar	Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish	mashinasozlik, avtomobilsozlik, yengil, kimyo, oziq-ovqat	Nisbatan past raqobatdoshlik afzalliklariga ega
Potensial raqobatdoshlik mavqeiga ega tarmoqlar	Yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish	Mikroelektronika-axborot kompleksi, farmatsevtika, mikrobiologiya	Potensial rivojlangan raqobatdoshlik afzalliklarga ega

Qayta ishlash tarmoqlarida birinchi kategoriyali kuchli raqobatdosh guruhiga sanoatning quyidagi xomashyo va qazib chiqarish sektorlari kiradi: neft-gaz, rangli metallurgiya, paxtani qayta ishlash sanoati. Ushbu tarmoqlar hissasiga mamlakat sanoat eksportining 70 foizdan ortig'i to'g'ri keladi. Tashqi bozorda tarmoqning raqobatdoshligini aks ettiradigan ko'rsatkich hisoblangan umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmida eksport mahsulotlari ulushi o'sish tendensiyasiga ega: rangli metallurgiyada 72 dan 85 foizga, qora metallurgiyada 28,2 dan 55 foizga, neft-gaz sohasida 20,1 dan 47 foizga, paxta tozalashda 87 foizdan 90 foizga o'sgan. Ushbu tarmoqlarning raqobatdoshlik indikatori boshqa ishlab chiqarish turlariga nisbatan ancha yuqori hisoblanadi.

Raqobatdoshlik salohiyatiga ega bo'lgan istemol tovarlari ishlab chiqarishga yo'naltirilgan ikkinchi guruh tarmoqlarga quyidagi tarmoqlar kiradi: yengil sanoatning qayta ishlash tarmoqchalari, oziq-ovqat sanoati, avtomobilsozlik. Mahalliy iste'mol tovarlari raqobatdoshligi indeksi xomashyo ishlab chiqarishdagi shakllangan raqobatdoshlik ko'rsatkichiga nisbatan birmuncha past. Umumiy ishlab chiqarish hajmida eksport mahsulotlarining yengil sanoatdagi ulushi 35 foiz, mashinasozlikda 25,5 foiz, oziq-ovqat

sanoatida 5 foiz. Ushbu tarmoqlarning tashqi bozordagi raqobatdoshligi sanoatning o'rtacha darajasidan taxminan 20-25 foiz past hisoblanadi. Umuman olganda sanoat tarmoqlarining raqobatdoshligining pastligi muammosi saqlanib qolmoqda. Qayta ishlash sektori tarmoqlaridagi asosiy mahsulotlarni ishlab chiqarishning ichki xarajatlari jahondagi o'rtacha narx darajasiga yaqinlashib qolgani holda, ba'zi mahsulotlar turlari bo'yicha o'rtacha jahon bahosiga nisbatan yuqori. Ushbu tendensiya moddiy texnika va energetika xarajatlari ulushining yuqori darajada saqlanib qolayotgani bilan belgilanadi.

Sanoatda innovatsiyalarni rivojlantirishda foydalanilmagan quyidagi imkoniyatlar mavjud: sotilgan sanoat mahsulotining umumiy hajmida innovatsion mahsulot ulushi 2,8 foizni tashkil etadi.

Sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida yuksak texnologik mahsulot ishlab chiqarishning ulushi 2011 yilda 10,8 foizni tashkil etdi. Bu esa sanoat sohasi taraqqiy etgan mamlakatlarga nisbatan past hisoblanadi (30-35 foizdan kam emas).

Milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini ta'minlashda mamlakat sanoati yetakchi o'rin tutadi. Shuning uchun sanoatning raqobatdoshligini oshirish va barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi:

- texnologik jarayonlarni takomillashtirish hamda homashyo, material va energiya resurslari sarfi meyorini 10-15foiz ga tushirish hisobidan tannarxni pasaytirish va ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, 2015 yilga borib sanoatda sarflanadigan energiya ulushini kamida 30foizga kamaytirish;
- ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini va sanoat bo'yicha yiliga mehnat unumdorligini 6-7foizga oshirish, iste'mol va noishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, xodimlar sonini optimallashtirish;
- sanoat tarmog'ida faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalaridagi moddiy va ma'naviy jihatdan eskirgan ishlab chiqarish vositalarini yangilashni jadallashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini yanada modernizatsiya qilish hamda korxonalarda jahon andozasi talablari darajasida muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan zamonaviy texnologiyalarni jadal joriy etish;
- ishlab chiqarishning samarali diversifikatsiyalashuvi va an'anaviy tarmoqlar eksportini (neft-gaz sanoati, rangli metallurgiya, qishloq xo'jaligi mahsulotlari jumladan paxta tolasini qayta ishlash) ta'minlaydigan xomashyo resurslarini qayta ishlashni chuqurlashtirishga qaratilgan yo'nalishlarga innovatsiyalarni qo'llash;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlar ishtirokida ilm-fan yutuqlarini qo'llash imkoniyati yuqori bo'lgan, yuksak texnologik loyihalar doirasida innovatsiyalarni moliyalashtirish fondini yaratish;
- yirik korxonalarga investitsiyalarni jalb qilish va yuqori texnologik mahsulot eksportini qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali xalqaro innovatsion xamkorlikka jalb qilish mexanizmlarini yaratish;
- mahalliy mahsulotlarni sotish bozorlarini o'rganish va ularning tegishli bozor segmentlaridagi o'rnini aniqlash bo'yicha marketing tadqiqotlarini amalga oshirish;
- bozor — signallarining doimiy mavjud miqyosi va turli tovar va xizmatlarga istiqboldagi talabi, ularning texnik, iqtisodiy va ekspluatatsion darajasiga talablar monitoringini (ichki va tashqi) tashkil etish;
- texnologiyalar transferti sohasida xalqaro hamkorlikning huquqiy mexanizmlarini yaratish;
- yuksak texnologik mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish uchun bojxona qonunchiligi va ma'murchiligini takomillashtirish;
- korxonalarining moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish: sanoat tarmoqlari korxonalarini tarkibining moliyaviy menejjer va boshqaruvchilari tayyorlash darajasini oshirish.

Yaqin va uzoq istiqbolda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning barqaror o'sib borishiga iqtisodiyotni va uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni jadallashtirish hamda ko'lamini kengaytirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish borasidagi islohotlar zamin yaratadi. Xususan, Prezidentimiz tomonidan alohida ta'kidlab o'tilganidek, — 2013 yil va yaqin kelajakka mo'ljallangan dasturimizni amalga oshirishda iqtisodiyotimiz va uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik hamda texnologik yangilashni jadallashtirish va uning ko'lamini kengaytirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish markaziy o'rin tutishi darkor. Bu borada 2013 yil uchun ishlab chiqilgan va 370 dan ortiq strategik muhim loyihani amalga oshirishni ko'zda tutadigan Investitsiya dasturi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

### 3.2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va sotish kanallarini takomillashtirish yo'llari

Qayta ishlash sanoatining muvaffaqiyatli rivojlanishi agrosanoat kombinatining atrofida xom-ashyo zonalarini tashkil etish bilan ta'minlanadi. Xom-ashyo bazasini shakllantirish transport taqqoslama xarajatlari va yo'qotishlarini maksimal darajada qisqartirish imkoniyatlari orqali, shuningdek tayyorlash, saqlash va tashishda mahsulot sifatini saqlab qolish bilan erishiladi.

Vertikal integratsiyaning shakllaridan biri **agrosanoat birlashmalaridir**. Ular qoidaga ko'ra, bitta ma'muriy tumandagi qishloq xo'jaligi va sanoat korxonalari asosida tashkil etiladi. Agrosanoat birlashmasi darajasidagi integratsiya qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, transportirovka doirasi, mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash va realizatsiya qilishda birlikni va balanslashganlikni ko'zda tutadi.

Alohida tumanlarda yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan agrosanoat birlashmalari muvaffaqiyatli faoliyat yuritadi.

Hozirgi davrda O'zbekistonda agrosanoat kombinatlari va birlashmalari shaklida yaratilgan integratsiyalashgan tuzilmalar holding kompaniyalari deb yuritiladi. Bunda mulkiy integratsiya bosh korxonaga aksiyalari-nazorat paketlari vositasida qishloq xo'jaligi, qayta ishlash, xizmat ko'rsatuvchi va boshqa tashkilotlarni tashkiliy-moliyaviy birlashtirish asosida yagona tizim yaratish yuz beradi. Holding birlashmalar kapitalning bozorni tezroq tovarlar bilan to'ldirish maqsadida yuqori tezlikda harakatlanishini ta'minlaydi.

Holding kompaniyalari – bu qator qishloq xo'jaligi, sanoat korxonalari hamda muzlatgichli saqlash, transport, hattoki savdo xo'jaliklari yig'indisi bo'lib, ular ayniqsa, meva-sabzavot, konserva, uzumchilik, vinochilik va boshqa ishlab chiqarishda keng tarqalgan.

Agrosanoat ishlab chiqarishini tashkil etishning yana bir shakli – ishlab chiqarish (ilmiy-ishlab chiqarish) tizimlari. Ular o'zlarida ma'lum tur mahsulot ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash bosh tashkilotning tashkiliy va texnologik rahbarligi ostida o'zaro mas'uliyat va manfaatdorlik tamoyillari bilan ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalar asosida faoliyatining boshqa turlari bilan ham shug'ullanishini amalga oshiruvchi korxonaga va tashkilotlar guruhining shartnomaviy munosabatlarini ko'rsatadi.

O'zaro bog'liq, lekin yuridik jihatdan mustaqil faoliyat yurituvchi korxonalarni integratsiyalash zarurligi va maqsadga muvofiqligini rivojlangan mamlakatlar tajribalari tasdiqlamoqda. Bunday yo'nalishlardan biri moliya-sanoat guruhlaridir. Ular tovar va xizmatlar bozori raqobatbardoshligini oshirish va kengaytirishga, ishlab chiqarish samaradorligini o'sishiga, yangi ish joylari yaratishga yordam beruvchi investitsion yoki boshqa loyihalarni realizatsiya qilish uchun yuridik jihatdan mustaqil shaxslarni iqtisodiy integrallash asosida tuziladi.

Agrar sohada moliya-sanoat guruhini tuzish korxonalariga xizmat ko'rsatadigan va qayta ishlaydigan qishloq tovar ishlab chiqaruvchilarini oqilona kooperativlashtirish uchun zarur. Agrosanoat sohasi va moliyaviy strukturalarning korxonani integratsiyalash bo'yicha turlicha variantlari bo'lishi mumkin.

Hamkorlikdagi faoliyat haqidagi shartnoma asosida agrosanoat uyushmalari tuziladi. U sheriklarning xo'jalik faoliyatini muvofiqlashtirish (qishloq xo'jalik va qayta ishlovchi korxonalar savdo tashkilotlari) va mahsulot realizatsiyasidan tushgan foydani teng taqsimlash borasidagi bir xil huquqlariga asoslangan notijorat tashkilotidir. Uyushmalar ikki xil yo'nalishda tuziladi: tarmoq ichida va oziq-ovqat bo'yicha. Birinchisi tarmoq bo'yicha boshqarishni tiklashga yo'naltirilgan, ikkinchi holatda uyushmaning tashkilotlari va a'zolari mos keluvchi soha bo'yicha qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari va qayta ishlash korxonalari bo'ladi.

Amalda esa kam hollarda notijorat sheriklikning tashkiliy-huquqiy shakli ham qo'llaniladi.

ASM sohasidagi yana bitta integratsiyalanish kontserndir. Kontsern qatnashuv tizimi moliyaviy aloqalar, manfaatlar umumiyliги haqidagi shartnomalar vositasida amalga oshiriladigan

birlashuv shaklidir. Integratsiyalashgan tuzilmalarga kiruvchi tashkilotlar nominal ravishda mustaqilligicha qoladi, aslida esa, yagona xo‘jalik yurituvchi rahbarga bo‘ysunadi. Parrandachilik fabrikasi (2 ta broyler, 1 ta tuxumchilik), omuxta em zavodi, bir qancha non (don) bazalari, shuningdek, xususiy savdo tarmog‘i kiradi. Korxonalarni birlashtirish konsernga ishni yagona birlashtirilgan tsikl asosida ( g‘alla yetishtirishdan tortib parrandachilik mahsulotlarini realizatsiya qilishgacha) tuzish imkonini beradi.

Kapitalning konsentratsiyalanish miqyosi ishlab chiqarish quvvati, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash imkoniyatlariga ko‘ra bunday tuzilmalar bozor konyunkturalari tebranishlarida kuchli barqarorlik kasb etadi, u investitsiya resurslarini samarali taqsimlashga qodir, ularni eng rentabelli yo‘nalishlarga jamlay oladi.

*Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tayyorlash, saqlash, qayta ishlash va sotish infratuzilmasini rivojlantirish.* dehqon va fermer xo‘jaliklari tovar mahsuloti yetishtiruvchilar meva, sabzavot, kartoshka va poliz mahsulotlarini yetishtirish va sotishdan ham yuqori moddiy manfaat ko‘radilar. Chunki bu turdagi mahsulotlarini yetishtirish va sotish to‘liq dehqonlarning ixtiyorida bo‘lmoqda. Ammo mamlaktimizda bu turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish miqdorini ko‘paytirish va sifatini yaxshilash borasida ko‘plab kamchiliklar mavjud. Jumladan, respublikamiz bo‘yicha qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va sotishni o‘rganuvchi axborot – marketing tizimi yetarli darajada shakllanmagan. Shu sababli yillar bo‘yicha ayrim turdagi mahsulotlar baholarining nobarqarorligi oqibatida yo‘l iste‘molchi yoki dehqonlar zarar ko‘rmoqdalar.

Oziq – ovqat mahsulotlari (meva – sabzavot, go‘sh, sut, tuxum va boshqalar) asosan dehqon xo‘jaliklarida yetishtirilib, bu turdagi mahsulotlarni qayta ishlash va tayyorlash bilan bog‘liq ishlar xususiy yoki qo‘shma korxonalar tomonidan amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda sabzavotning 12-15 foizi, meva va uzumning 18 – 20 foizi, sut va go‘shning 13 – 15 foizi qayta ishlanib, bozorga chiqarilmoqda yoki umumiy holatda qariyb 80 – 85 foizi mahsulot yangi uzilgan holda iste‘mol qilinmoqda. Ma‘lumki, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlar bir qismi takror ishlab chiqarish uchun qishloq xo‘jaligining o‘zida ishlatiladi, ma‘lum bir qismi qayta ishlashga va qolgan qismi aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish uchun iste‘molga yo‘naltiradi va ichki iste‘mol talabini tashkil etadi.

Hozirgi kunda respublikada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni yanada jadal rivojlantirish maqsadida hududlar bo‘yicha qayta ishlash korxonalari tashkil etilmoqda, (3.2.1 - jadval)

### 3.2.1 - jadval

#### 2012yilda tashkil etiladigan qayta ishlash korxonalari

Hududlar	Loyihalar soni				
	Un mahsulotini qayta ishlash	Qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish	Meva-sabzavotni qayta ishlash	Sutni qayta ishlash	Go‘shni qayta ishlash
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	20	5	2	7	5
Andijon	-	3	2	6	5
Buxoro	7	3	6	8	8
Jizzax	7	1	8	7	3
Qashqadaryo	10	15	2	7	7
Navoiy	14	8	5	8	9
Namangan	3	2	7	5	4
Samarqand	10	1	12	8	7
Surxondaryo	5	6	1	9	5

Sirdaryo	3	3	3	3	2
Toshkent	9	2	4	5	7
Farg`ona	9	4	3	7	7
Xorazm	19	4	6	5	6
Toshkent sh.	3	9	1	2	2
<b>Respublika bo`yicha jami:</b>	<b>119</b>	<b>66</b>	<b>62</b>	<b>87</b>	<b>77</b>

Qishloq xo`jaligi mahsulotlariga bo`lgan talab va taklifni bozor muvozanatida ushlab turish maqsadida respublikamiz hududlarida meva-sabzavot mahsulotlarini zaxiraga qo`yish bo`yicha omborlar va muzlatkichli kameralar xizmat ko`rsatish tashkil etilib, aholiga sifatli mahsulotlar yil davomida yetkazib berilmoqda.

Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini yetishtirish, tayyorlash va sotish tizimini bir – biriga yaqinlashtirish va tarkibiy bog`liq tizimni shakllantirish maqsadida ulgurji va dehqon bozorlari, agrofimlar, savdo uylari kabi yangi shakladagi sub`yektlar tashkil qilinib, rivojlana boshlandi.

Respublikamizda Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasini rivojlantirish pirovard natijada:

- mahsulotlarni uzoq muddat saqlashga erishish;
- mahsulotlarni uzoq masofaga, jumladan, eksport qilish maqsadida transportda tashish;
- mahsulotlarning nobud bo`lishini kamaytirish;
- mahsulotlar pishib etiladigan qisqa davrda ularni sotish olish va narx-navosi tushib ketishining oldini olish;
- mahsulotlarni qayta ishlash natijasida qo`shimcha ishchi o`rinlarni yaratish va daromad miqdorini oshirilishiga erishiladi.

Darhaqiqat, Qashqadaryo viloyatida 2013 yilda barcha toifadagi xo`jaliklar tomonidan yetishtirilgan qishloq xo`jaligi mahsulotlarini sotish, qayta ishlash korxonalariga yetkazilganligi va aholi iste`moli uchun hamda sog`liqni saqlash korxonalariga tuzilgan reja asosida yetkazib berilgan. Bunda yetishtirilgan jami mahsulotning 10,8 foizi qayta ishlash korxonalariga, 0,25 foizi eksportga, 8,7 foizi sohliqni saqlash va ta`lim muassasalari korxonalariga, 28,05 foizi esa ichki bozorlarga sotilgan va ichki iste`mol uchun esa 45 foizi yo`naltirilgan.

Respublikamiz ASMDa dehqon va fermer xo`jaliklari mahsulotlarini ishlab chiqarish, tayyorlash, qayta ishlash va sotish tizimining uzviy bog`liqligini ta`minlash asosida butun majmuaning iqtisodiy barqaror rivojlanishini ta`minlash maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- bozor tamoyillari va iqtisodiyotni erkinlashtirish talablaridan kelib chiqqan holda qishloq xo`jaligi mahsulotlarini tayyorlash va qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan yangi huquqiy – me`yoriy xujjatlarni qabul qilish, amaldagilarni takomillashtirish;
- fermer va dehqon xo`jaliklari uchun zarur bo`lgan moddiy- texnika vositalari va aylanma mablag`larni sotishga ixtisoslashgan maxsus ulgurji – chakana savdo do`konlarini tashkil etish va rivojlantirish, ularni respublikamizda va xorijda ishlab chiqarilgan resurslar bilan tanishtirish va tegishli maslahatlar ko`rsatishga ixtisoslashgan hududiy ko`rgazmalarni doimiy tashkil etish;
- fermer va dehqon xo`jaliklari bilan tayyorlov va qayta ishlash korxonalarini o`rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish, jumladan, to`g`ridan – to`g`ri shartnomalar tuzishni rag`batlantirish asosida bo`naklash va yakuniy hisob – kitoblar tizimini takomillashtirish;
- fermer xo`jaliklari tomonidan mahsulotlarni saralash va saqlash infratuzilmasini rivojlantirish, qayta ishlash korxonalarini tashkil etilishini iqtisodiy rag`batlantirish maqsadida

imtiyozli kredit ajratish, xorijdan texnologiya va asbob – uskuna olib kelish bilan bog'liq jarayonlarni erkinlashtirish;

- respublikamizda dehqon va fermer xo'jaliklari hamda agrofirkalar o'rtasida ko'ngilli va ixtiyoriy birlashish asosida kooperatsiya munosabatlarini tashkil etish, shuningdek, ular tomonidan shartnoma asosida olib kelinayotgan mini texnologik tseklar, qurilma va asbob uskunalariga imtiyozlarni doimiy belgilash;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini erkinlashtirish maqsadida uni iqtisodiy rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash, eksport bilan bog'liq tizimdagi hujjatlashtirish jarayonlarini, ayniqsa ruxsatnoma olish, litsenziyalashtirish va sertifikatlashtirish bilan bog'liq tizimini soddalashtirish;

- oziq-ovqat mahsulotlari eng avvalo meva-sabzavot va chorva mahsulotlarining marketingini rivojlantirish asosida mamlakatda etishtirilayotgan mahsulotlar turi va hajmi, narx-navosi bo'vicha choraklik va yillik haqiqiy va istiqbol ko'rsatkichlaridan iborat bo'lgan ma'lumotlarni doimiy ravishda tarmoq matbuotida chop etib borish.

Ushbu tadbirlar bosqichma-bosqich amaliyotga joriy qilinishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, jumladan meva – sabzavotning 35 – 40 foizi, uzumning 50 foizi, sutning 30 foizi va go'shtning 40 foizining qayta ishlanishi, qishloq hududlarida yangi ishchi o'rinlarini yaratish va qo'shimcha daromad ko'payishini ta'minlaydi.

### **3.3. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar samaradorligini oshirishda xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari**

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish maqsadi – mamlakatimiz iqtisodiyotini yangilash, ilm-fan yutuqlari keng qo'llaniladigan ustuvor sohalarni rivojlantirish asosida milliy iqtisodiyotimizni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish, uning raqobatdoshligini oshirish va aholining o'sib, o'zgarib borayotgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning jahon tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatni modernizatsiya qilish uchun dastlab mamlakat iqtisodiyotini, shu jumladan, sanoatning hozirgi holatini chuqur va konkret baholash lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, "... iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishga aylandi".

2011-2015 yillarga mo'ljallangan mamlakatni rivojlantirish dasturi quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan.

1. 2011-2015 yillarga mo'ljallangan islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'lamini kengaytirish choralari dasturi.
2. 2011-2015 yillarga mo'ljallangan infratuzilmani, transport va kommunikatsion qurilishni jadal rivojlantirish dasturi.
3. Moliya-bank tizimini yanada isloh etish va barqarorligini oshirishning 2011-2015 yillarga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari dasturi.
4. O'zbekiston Respublikasi sanoatining 2011-2015 yillarga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari dasturi.

Mamlakatimizda chuqur o'ylangan va puxta tahlillar asosida 2011–2015 yillarga mo'ljallab ishlab chiqilgan, bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan to'rtta strategik dastur amalga oshirilmoqda. Ularda sanoat, infratuzilma, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirish, moliya-bank tizimini yanada isloh etish va uning barqarorligini oshirish, shuningdek,

mamlakatimizda qulay investitsiya muhiti va uni baholashning xalqaro mezonlarini shakllantirish koʻzda tutilgan.

2011–2015 yillardagi eng muhim vazifa – makroiqtisodiy barqarorlik va izchil yuqori iqtisodiy oʻsish surʼatlarini taʼminlash, uning sifat koʻrsatkichlarini iqtisodiyot tarmoqlarini yanada diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni modernizatsiya etish, texnik va texnologik yangilash, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulot hamda xizmatlarning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatdoshligini oshirish hisobidan yaxshilashdan iborat .

### 3.3.1-jadval

#### Oʻzbekiston Respublikasida sanoat rivojlanishining 2011-2015 yillarga moʻljallangan prognoz koʻrsatkichlari

Koʻrsatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil
Sanoatning YAIM dagi salmogʻi (foiz hisobida)	23,9	24,1	24,8	25,8	26,8	28,0
Tayyor mahsulotning sanoat mahsulotlari umumiy hajmidagi salmogʻi, foizda	50,6	51,7	53,6	56,2	58,7	61,2
Sanoatga kiritiladigan investitsiyalar hajmi, million AQSH dollari	2 668,9	3 207,9	3 923,9	4 891,1	6 118,9	7 531,6
Sanoat mahsuloti eksportining sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmidagi salmogʻi, foizda	38,0	42,3	46,1	51,8	58,0	63,2
Umumiy eksport tarkibida sanoat mahsuloti eksportining ulushi, foizda	51,1	61,7	62,5	65,3	69,7	71,8

Oʻzbekiston Respublikasi sanoatining 2011-2015 yillarga moʻljallangan ustuvor yoʻnalishlari dasturini amalga oshirish maqsadida sanoatda umumiy qiymati 47,3 milliard dollarga teng boʻlgan 119 ta yirik investitsion loyihani amalga oshirish moʻljallangan.

Ushbu dasturga muvofiq sanoat mahsulotini ishlab chiqarishning yillik oʻsish surʼati 9-12foizni tashkil etadi, sanoatning YAIMdagi ulushi 2010 yildagi 24 foizdan 2015 yilda 28 foizga yetadi. Sanoat mahsuloti tarkibida jiddiy ijobiy tarkibiy oʻzgarishlar sodir boʻladi va qayta ishlash sanoatining yalpi sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 41 foizdan 49 foizga yetadi. Yuqoridagi amalga oshirilgan chora-tadbirlar tufayli eksport qilinayotgan sanoat mahsulotlarining eksport umumiy hajmi tarkibidagi ulushi 2010 yildagi 42,3 foizdan 2015 yilda 63,2 foizga yetadi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy oʻzgarishlar va uni yanada diversifikatsiya qilish sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2010 yildagi 24foiz dan 2015 yilda 28foiz ga, qurilishning ulushini esa – 6,4foiz dan 7,6foiz ga oshirish imkonini beradi. Natijada 2011–2015 yillarda qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1,3 barobar ortgani holda, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 17,5foiz dan 13,5foiz ga tushadi.

Yuqorida qayd etilgan konsepsiyada moʻljallangan strategik vazifalarni amalga oshirish oʻrta muddatda quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

- makroiqtisodiy rivojlanishning boshqariladigan modeli asosida barqaror, yuqori iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini saqlab qolish;
- to‘xtovsiz iqtisodiyotni uzluksiz modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan yangilashni amalga oshirish;
- ishlab chiqarish, transport va kommunikatsiya infratuzilmasini barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi ehtiyojlarini qondirish talablariga muvofiq rivojlantirish;
- bank-moliya tizimi barqarorligini oshirish va uning investitsiya miqyosini kengaytirishdagi rolini oshirish;
- nodavlat sektori, birinchi navbatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi roli va ulushini yanada oshirish;
- yuksak agrotexnologiyalar asosida zamonaviy samarali qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni yaratish va qishloq aholisi daromadlarini oshirish;
- aholi, jumladan, yosh avlodning barqamol rivojlanishini ta‘minlaydigan zamonaviy ijtimoiy sektorni shakllantirish.


Mamlakatni modernizatsiya qilish va yangilash chora-tadbirlarini amalga oshirishning muhim sharti va manbai sifatida faol investitsiya siyosatini amalga oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi yildan yilga ortib borayotgani ham buning yorqin dalilidir.

Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarining investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar, avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning o‘rni beqiyosdir. Bunda ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish, yangi ish o‘rini yaratish va shu asosda mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta‘minlash imkoniyati yaratiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi mazkur davlatlarning yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi omillardan biri bo‘lgan.

2011 yilda xorijiy investitsiyalar hajmi 3832,4 million AQSH dollarni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2010 yildagidan qariyb 1074.97 million AQSH dollariga ko‘p ekanini kuzatish mumkin. 2012 yilda xorijiy investitsiyalar hajmi 3277,55 million AQSH dollarni tashkil etgan bo‘lsa, shundan 2526,56 million AQSH dollari, ya‘ni 79 foizdan ko‘prog‘i to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardir.

Xalqaro moliya institutlari va xorijiy kompaniyalar bilan tuzilgan shartnoma va bitimlar asosida 2013 yilda iqtisodiyotimizning real sektoriga 3 milliard AQSH dollaridan ortiq investitsiya kiritish ko‘zda tutilmoqda. Shuni ta‘kidlash kerakki, bu mablag‘ning 2 milliard 180 million AQSH dollaridan ortig‘i yoki 72 foizdan ziyodini to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalari tashkil etadi.

2013 yilda hududiy investitsiya dasturi doirasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning mutloq qiymati 402 million dollarni tashkil etgan. Hududlar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak, o‘zlashtirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning katta qismi Toshkent shahri (39,2 foiz) hissasiga to‘g‘ri kelgan va xorijiy sarmoyalar ishtirokida faoliyat olib borayotgan korxonalar soni mazkur yilda 273 taga ko‘paygan. Umumiy hisobda mamlakatimiz bo‘yicha 2011 yilda xorij sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar soni 372 tani tashkil etgan. Boshqa hududlarimiz bo‘yicha ma‘lumotlar 3.3.1-rasmda keltiriladi.



### 3.3.1-rasm.Hududiy investitsiya dasturi doirasida 2013 yilda jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi.

2013 yilning 1 oktabr holatiga ko‘ra, xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar soni jami 4575 tani, shundan faoliyat olib borayotgan korxonalar soni 4203 tani tashkil etgan. Faoliyat olib borayotgan qo‘shma korxonalarining 1600 tasi tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan korxonalar hisoblanadi.

Yurtimizda o‘tkazilayotgan iqtisodiy siyosat jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiya jarayonining faqat davlatning tarkibiy tuzilishi bo‘yicha emas, balki xususiy sektor darajasida ham jadallashuvini nazarda tutadi. Erkin bozorning faoliyat ko‘rsatishi uchun yaratilayotgan sharoit G‘arb va Sharq ishbilarmonlarining mamlakatimizga barqaror qiziqishini uyg‘otmoqda. Bugungi kunda bizning tadbirkorlarimiz ham xorijiy investorlarni hamkorlikka jadal jalb etmoqda.

Ayni vaqtda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar barpo etish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga olmoqda: korxonani tashkil etish sabablarini inobatga olish; ishonchli sherik tanlash; xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar barpo etish haqida qaror qabul qilish.

## XULOSA TAKLIFLAR

O‘zbekiston Respublikasi nisbatan yaxshi rivojlangan qayta ishlash sanoatiga ega. Ayniqsa, oziq- ovqat va yengil sanoati kuchli rivoj topgan. Shu bilan birgalikda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tayyorlaydigan, qayta ishlaydigan va sotadigan agrosanoat majmuasining uchinchi sohasida ko‘pgina yechimni kutayotgan masalalar mavjud. Ularning eng asosiysi sohaga kiruvchi tarmoqlarda vujudga keltirilgan mavjud quvvatlardan to‘liq foydalanishdir. Ma‘lumki, ayrim tarmoqlarda mavjud quvvatlardan foydalanish darajasi 153 foizni tashkil etmoqda. Bu o‘z navbatida, juda katta muammolarni vujudga keltiradi. Agrosanoat majmuasining qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tayyorlaydigan, qayta ishlaydigan va sotadigan sohasini rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada juda katta ishlar amalga oshirilayapti. Asosiy mahsulotlardan biri- paxtani chuqur qayta ishlashni tashkil etish, ayniqsa, katta iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega.

Viloyatimiz juda katta yog‘-moy ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etilgan. Hozirda viloyatimiz aholisiga yetarli miqdorda sifatli yog‘-moy ishlab chiqarib bera oladigan imkoniyat mavjud. Bu boradagi asosiy masala yog‘-moy beruvchi xomashyo yetishtirishni ko‘paytirishdir. Albatta keyingi yillarda soya, masxar, kunjut, zig‘ir kabi moy beruvchi ekin turlari yetishtiriladigan maydonlar kengaytirilmoqda. Ammo ulardan olinayotgan xomashyo miqdori hozircha qayta ishlash sanoatining talablari darajasida yetarli emas.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining sanoat tarmog‘ini modernizatsiyalash yo‘lida ko‘pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Shular qatoriga, Prezidentimizning “2011-2015 yillarda O‘zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi 2010 yil 21 dekabrda PQ-1442-sonli qarori ham ushbu sohani yanada rivojlantirishga asos bo‘ladi.

Demak, bugungi kunda viloyat hamda tuman iqtisodiyotning jadal va barqaror rivojlanishini ta‘minlash maqsadida uning tashqi omillarga bog‘liqligini kamaytirish, ishlab chiqarish jarayonlariga yangi, samarali texnologiyalarni tatbiq qilishni jadallashtirish, mahalliy xom ashyo va ishlab chiqarish resurslaridan keng foydalanish, shuning asosida zamonaviy raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish, valyuta mablag‘laridan tejamli va oqilona foydalanish, shuningdek yangi ish joylarini yaratish masalasiga alohida e‘tibor berilib, belgilangan dasturlarni amalga oshirish quyidagi taklif va tavsiyalar orqali amalga oshiriladi, deb hisoblaymiz:

- mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish;
- sanoat turli tarmoqlarining qo‘shilgan qiymati yuqori darajada bo‘lgan mahsulotlar eksportini ko‘paytirish va tegishli ravishda, an‘anaviy eksport salmog‘ini kamaytirish;
- samarali ichki va tarmoqlararo ishlab chiqarish kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish;
- iqtisodiyotning real sektorida mamlakatimiz korxonalarining kooperatsiyasi salohiyatidan yuqori darajada foydalanish;
- mahalliy xom ashyoni qayta ishlashni kengaytirish, ishlab turgan korxonalarni zamonaviylashtirish va yangilarini tashkil etish hisobiga iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish;
- Ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish maqsadida chet el investitsiyalari salmog‘ini ko‘paytirish;
- Asosiy texnologik jarayonlarni modernizatsiyalashtirish, diversifikatsiyalash va robotlashtirish;
- Fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish quvvatlari va resurslardan oqilona foydalanish hamda tejamkorlikka rioya qilish va h.k.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### 1. Huquqiy va meyoriy hujjatlar

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T., «O'zbekiston». 2008.– B.40.
- 1.2. Investitsion faoliyat to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni 24 dekabr 1998 yil. – T.: 1998.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonuni. 2000. 25 may.
- 1.4. Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyati kafolatlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni 14 aprel 1999 yil. – T.: 1999.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasining «Soliq kodeksi». 2007. – 25 dekabr. – B. 263.
- 1.6. O'zbekiston Respublikasining «Mehnat kodeksi». –T., «Adolat», –1999.– B.136 .
- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. –T., 2009.– № 52. – B.17-54.
- 1.8. «Kredit uyushmalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 4 apreldagi qonuni. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2002 yil 4 may, №95, b.1-2.
- 1.9. O'zbekiston Respublikasi «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonuni; Xalq so'zi, 1997 yil avgust.
- 1.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 yanvar 1995 yildagi “Xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish haqida”gi Farmoni. // O'zbekiston ovozi. 8 yanvar 1995.
- 1.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi PF-4053-sonli Farmoni. 2008. –28 noyabr.
- 1.12. “Davlat extiyohlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni mablag' bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish to'g'risida”gi Vazirlar maxkamasining qarori. 2002-yil 7 noyabr 383-son.
- 1.13. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni sug'urta yo'li bilan himoya etish “Madad” Agentligini tashkil etish haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26 iyul 1995 yildagi VII -1207 sonli Farmoni.
- 1.14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1987-son Farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Farmoni. 2003. 30 avgust.
- 1.15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida»gi Farmoni. 2003. 27 oktabr.
- 1.16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qullab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish tug'risida»gi PF-1207-sonli Farmoni. 2003. 23 dekabr.
- 1.17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston iqtisodiyotida xo'jalik yurituvchi subyektlarning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari tug'risida»gi Farmoni. 2003. 24 yanvar.
- 1.18. Mikrofirmalar va kichik korxonalarini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti UP-3620-son Farmoni. 20 iyun 2005 yil. // Bank axborotnomasi. 2005 3 avgust - №31 (482).

- 1.19. Tadbirkorlik subyektlarini xukukiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti UP-3619-son Farmoni. 14 iyun 2005 yil.
- 1.20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktabrdagi «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlar bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora – tadbirlari to'g'risida»gi 383-sonli Qarori //Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asoslari. – T., «Fan». 2003. – B.16.
- 1.21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2007 yilda qishloq xo'jaligi korxonalarini fermer xo'jaligilarga aylantirish chora – tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. 2006. – 11 noyabr.

## **2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asari va ma'ruzalari**

- 2.1. Karimov I.A. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T., «O'zbekiston», 1995. – B.273.
- 2.2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T., «O'zbekiston»,1998.– B.211.
- 2.3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T., «O'zbekiston», 1999. – B. 125.
- 2.4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy–iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2009 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. – 2009. 14 fevral.
- 2.5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T., O'zbekiston, 2009. – B.56.
- 2.6. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T., O'zbekiston, 2011. – B.47.
- 2.7. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichlarga ko'taradigan yil bo'ldi. – T., Xalq so'zi, 2012.
- 2.8. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. // Xalq so'zi. – 2013. 19 yanvar
- 2.9. Karimov I.A. Mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. – 2014. 19 yanvar

## **3. Monografiyalar, kitoblar, risolalar va ilmiy maqolalar**

- 3.1. Abdukarimov B.A. va boshqalar. Korxonalar iqtisodiyoti. Darslik-T.: Fan, 2005-288 bet.
- 3.2. Abdug'aniyev A. “Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti” O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti Toshkent, 2004 y, 304 bet.
- 3.3. Aybenov X., Raxmonov M., “Dehqon va fermer xo'jaliklarini moliyalashtirish” T.: 57 bet. O'zbekiston Iqtisodiy Axborotnomasi -2004 yil 9-10 soni.
- 3.4. Aybenov X. Mamadaliyev A. Aybenova A. “Qishloq xo'jalik iqtisodiy islohotlar talab darajasida bo'lishi” – O'zbekiston Iqtisodiy Axborotnomasi -2004 yil 4-5-6 soni 18-bet.
- 3.5. Abdullayev Y. Ibrohimov A., Raximov M. Iqtisodiy tahlil. 100 savol va javob-T.: Mehnat, 2001-320 bet.
- 3.6. Abdullayev Y.A. Bozor iqtisodiyoti asoslari: 100 savol va javob, Mehnat, 1997.
- 3.7. Baratov M. Mulk – moddiy manba. // Iqtisod va hisobot № 10, 35-bet.
- 3.8. “Bozor Islohotlarini chuqurlashtirish sharoitida qishloq aholisi farovonligini oshirishning strategiyasi va istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalar to'plami, Qarshi, 2009 yil, 263 bet.
- 3.9. Vaxabov A., Ibrohimov A., Hakimov B. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. – T.: TMI, 2003y, -176 bet.

- 3.10. Vaxabov A.V va boshq. Xorijiy investitsiyalar. – T.: Moliya, 2010 y, 328 b.
- 3.11. Волкова Н.А. и др. Экономика сельского хозяйства и перерабатывающих предприятий, М.: “Колос”, 2005 г, 240 с.
- 3.12. Jo‘rayev F. “Qishloq xo‘jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish”, “Istiqlol”, Toshkent 2004 y. Darslik, 504 b.
- 3.13. Ibragimov R. Xududiy tadbirkorlik istiqbollari. // Iqtisod va hisobot, № 3, 57 bet.
- 3.14. Ishmuhammedov A., Asqarova M. “O‘zbekiston Milliy Iqtisodiyoti”, O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2004 y, 154 b.
- 3.15. Salimov B., Hamdamov Q., Tursunxo‘jayev T., “Jahon qishloq xo‘jaligi”, O‘quv qo‘llanma. T.: -2004 y, 206 bet,.
- 3.16. To‘raxo‘jayev T. “Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish texnologiyasi”. O‘quv qo‘llanma. T.: 2004 y, -153 b.
- 3.17. Umirzoqov U.P. va boshqalar “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va menejmenti”, Darslik. T.: “Iqtisod-moliya”, 2008 y, -268 bet.
- 3.18. Umirzoqov U.P. va boshqalar “Fermer xo‘jaligi iqtisodiyoti”, T.: “Iqtisod-moliya”, 2008 y, -276 b.
- 3.19. Hakimov R., Otaqulov M., Yusupov E., Yusupov M. “ASM iqtisodiyoti” T.:, 2004 y, 45-51 bet., o‘quv qo‘llanma.
- 3.20. Hamdamov Q. “Qishloq xo‘jaligi korxonalarini faoliyatini boshqarish”, O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. T.: -2004 y, -206 bet,.
- 3.21. Ergashev R.X. “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti”, Darslik. T.: “EKSTREMUM PRESS”, 2011 y, -416 b.
- 3.22. Ismailova S.S. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotini modernizatsiyalashda lizing kreditlarining ahamiyati.// Iqtisod va moliya jurnali. 2013 yil, 11-son.
- 3.23. Купаяниди К.И., Пайгамова Р.Р. Кичик тadbirkorликни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини модернизация қилишнинг Буюк Британия тажрибаси ва Ўзбекистонда ундан фойдаланиш имкониятлари.// Иқтисод ва молия журналі. 2013 йил, 12-сон
- 3.24. Maxambetova U.R. Dehqon xo‘jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligini aniqlash ko‘rsatkichlari. // Iqtisod va moliya jurnali. 2013 yil, 12-son.
- 3.25. Московская сельскохозяйственная академия. [www.ecfak.timacad.ru](http://www.ecfak.timacad.ru)
- 3.26. Саратовская сельскохозяйственная академия. [www.tstu.ru](http://www.tstu.ru)
- 3.27. Попов Н.А. «Основы рыночной агроэкономики и сельского предпринимательства», М.: Тандем, 2005, <http://family.taukita.ru/item22219310.html>
- 3.28. Попов Н.А. Экономика отраслей АПК. Курс лекций, 2005, <http://shopper.hl.ru/books.shtml?topicк935&pageк1>
- 3.29. Коваленко Н.Я., Экономика сельского хозяйства, М.: “ЮРКНИГА”, 2004, <http://web.book.ru/cgi-bin/book.pl?page=4&book=88899>